

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI****O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI****O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ f.f.n. Haydarov Sh.
“ _____ ” _____ 2013 y.

**514110-O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**“Boburnoma” asarida onomastik (kishi) nomlari”
mavzusida bajargan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Haydarova Zarnigor

Ilmiy rahbar: fil.f.n. Soipov Sunnat

Taqrizchi _____ f.f.n..Eshonqulova S

“Himoyaga tavsiya etilsin” Davlat attestatsiya hay’ati raisi:
O‘zbek tili va uni o‘qitish uslubiyati
kafedra mudiri: dots. Yadgarov Qahramon.

JIZZAX-2013.

Reja:**Kirish****I bob. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi**

1.1. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek xalqining buyuk zabardast allomasi

1.2. "Boburnoma" buyuk qomusiy asar

II bob. "Boburnoma"da onomastik nomlar

2.1. Onomastika haqida ma'lumot

2.2. "Boburnoma" da qo'llanilgan kishi nomlari

2.3. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi akademik litsey ikkinchi bosqich talabalariga o'tilishi

Xulosa

Kirish

Ishning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, milliy qadriyatlarni qayta baholash o‘ziga xos bir jarayon tusini oldi.

Ayniqsa, keyingi yillarda milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lgan, o‘zbek tilshunosligi tarixi va onomastikasini bir tarixiy asar tili misolida o‘rganish, yanada kuchayadi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotgan sharoitda, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvoffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”¹

Bu, ayniqsa, tarixiy haqiqatni badiiy aks ettirgan asarlarning tilini o‘rganish misolida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki adabiy manbalarni, ayniqsa ularning tilini o‘rganish o‘sha millatning azaliy, qadimiy merosi va asarlari tilini o‘rganish ana shu jihatdan ham qimmatlidir. Boburning “Boburnoma” asari ilida qayd etib o‘tishgan tarixiy shaxslar nomlari hozirgi kungacha ham o‘zbek tili onomastikasi nuqtai nazardan maxsus o‘rganilgan emas. Asar tilida keltirilgan kishi nomlarini Alloh ismlari va diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda arabcha va qadimgi yahudiycha kabi guruhlariga bo‘lib tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirish, ular xususida umumlashma ilmiy xulosalar chiqarish o‘zbek onomastikasining dolzarb vazifalaridan biridir.

“Boburnoma”da keltirilgan arabcha ismlarni ma’no va tuzilishi jihatidan guruhlariga bo‘lib, ham morfologik, ham sintaktik tomonlarini o‘zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan o‘rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asr adabiy jarayonida katta iz qoldirgan va o‘nlab asarlar yaratgan ijodkor bo‘lishiga qaramay uning “Boburnoma” asari adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan maxsus o‘rganilgan. Lekin uning mazkur asari nomshunoslik, ya’ni onomastika yuzasidan o‘rganilmagan.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.–T.: O‘zbekiston. 2002. 231-bet.

Uning “Boburnoma” asarini onomastik nuqtayi nazaridan o‘rganish va undagi kishi nomlarini maxsus guruhlariga bo‘lib ilmiy tasnif va tavsifini amalga oshirish o‘zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy muammolaridandir.

Muammoning o‘rganilish darajasi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asrda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlardan biri bo‘lib, uning ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi. Bu sermahsul ijodkorning bizga “Mubayyin”, “Risolai volidiya” nomli she’riy hamda jahonga shuhrati ketgan qomusiy “Boburnoma” kabi asarlari meros bo‘lib qolgan.

U o‘z davrining Alisher Navoiydan keyingi taraqqiyparvar ijodkorlaridan bo‘lib, o‘zbek she’riyati va ayniqsa, nasrining eng ilg‘or an‘analarini davom ettirdi.

Boburning ijodi O‘zbekistonda, ba’zi bir istisnolarni hisobga olmaganda, XX asrning 40-yillarigacha o‘rganilmagan, dastlabki maqolalar 1940-yildan boshlab chop etila boshlandi. Ayrim xrestomatiyalarga uning asarlari kiritildi va uning lirikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Shuningdek, Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayevlar 1948-1949-yillarda “Boburnoma”ning ikki jildligi kirill yozuviga tabdil qilinib, chop ettirganlar.

Shu yillarda “Boburnoma” sharqshunos Mixail Sale tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, kitob holiday bosilib chiqqan.²

1958 yilda Bobur tavalludining 475 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan akademik V. Zohidovning “O‘zbekiston madaniyati” gazetasining 1958- yil 12-aprel sonida bosilgan “Boburning adabiy faoliyati”, “Sharq yulduzi” jurnalining 1958-yil 11-sonida bosilgan “Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi haqida” maqolalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1959-yilda Aziz Qayumov va Sabohat Azimjonova tomonidan “Bobur lirikasi” deb nomlangan risola nashr etildi.

Aslida “Boburiya” deb nomlangan bu qomusiy shoh asar dunyo tillariga yigirmadan ortiq nom bilan tarjima qilingan: “Voqeanomayi podshohi”, “Taboqoti

¹ Hasanov S. Zahiriddin Muhamma Bobur. O‘zbekiston. T. 2011. 19-bet.

Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “G‘aroyib tarjimai hol”, “Sharhlar, “Bobur xotiroti” ushbu nomlar asarning sirli qirralariga ishora qiladigan go‘yo³.

Jahon adabiyotida memuar janrning nodir namunasi hisoblangan “Boburnoma” qomusiy asar sifatida e‘tibor topgan. Ta’kidlanishicha, asar to‘rt marta forsiyda va ingliz tilida, bir marta golland, italyan, hind, yapon, polyak, uyg‘ur, qozoq, tillarida chop etilgan. Tarjimalarni amalga oshirishda Vitsen (Golland), Velyam Erekin (ingliz), Lyukas Uayt King (Ingliz), Jan Lyui Bakye Gramleok (fransuz), A. Nayzer (nemis), Rushan Oro Begim (fors), Rashit Rahmati Arat (turk), Mixail Sale(rus), Eyji Mono (yapon), Mirzo Nasriddin Haydar Kuragoniy (pokistonlik), Rashid Ahtar Navdiy (pokistonlik), Said Atkor (hind) kabi tarjimonlar faoliyat ko‘rsatganlar. Asar matnining aniqlash va tadqiq etishda D.Derbelo, R.M. Kaldekot, F.G.Talbot, A.Denison-Ross, M.F. Kurruluzoda, Ya.G‘ulomov, S.Azimjonova, S.Jalolov, R. Shamsiddinov, V.Zohidov, B.Valiho‘jayev, A.Qayumov, X.Yoqubov, O.Sharafiddinov, M.Sahyxzoda, A.Hayitmetov, A.Ismoilov, X. Nazarov, N.Kamilov, S.Hasanov, Yo. Isoqov singari tarixchi, faylasuf, filolog va tabiatshunos olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bobur ijodi “Boburnoma”ning badiiy va g‘oyaviy mazmuni haqidagi X.Yoqubov, M.Shayxzoda, V.Zohidov izlanishlari e‘lon qilindi.

“Boburnoma” tilini o‘rganishga bo‘lgan dastlabki urinishlar asarni tarjima qilish jarayonidayoq kuzatila boshlandi.

“Boburnoma” dagi ko‘pgina joy nomlari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga oid terminlar tarjimonlar tomonidan batafsil sharhlab, izohlab berilgan. Birgina Lyukas Uayt King tuzgan sharhlar to‘rt mingdan ortiqdir.⁴ Ingliz boburshunosi, A.Beverij tarjimalarida Bobur tili va uslubiga alohida e‘tibor beradi. Asar tili, xususan grammatik qurilishini ilmiy asosda o‘rganish, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. N.I Ilminskiy “Boburnoma” morfologiyasiga doir masalalar asarini e‘lon qildi. “Boburnoma” tilini o‘rganish bo‘yicha X.Nazarovning o‘n beshga yaqin ilmiy maqolasi, risolalari va lug‘ati nashr etildi. Asar tilining fonetik

¹ Xolmatov Z. “Boburnoma” leksikasi. T. Fan. 2007. 4-bet.

² Buyuk qomusiy asar “Boburnoma” T. Sharq. 2002. 19-bet.

jihatlari yuzasidan ham maqolalar e'lon qilindi.⁵ X. Dadaboyev “Boburnoma”da qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy, harbiy terminlarni tadqiq qildi. A. Ibrohimov Bobur asarlaridagi o‘zlashma leksika tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini tayyorladi. Shuningdek, , M.Olimovning qator maqolalari asarda qo‘llanilgan sinonimlar lug‘ati nashr etildi. Jumladan, Boburning so‘z qo‘llash mahorati mavzuida “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida A.Ibrohimovning maqolasi chop etildi.

Tadqiqotning vazifalari. BMI maqsadidan kelib chiqqan holatda quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Boburning shoir va mutafakkir sifatida qilgan ishlari, asarlari, ularning mazmunini tavsifiy aniqlash;
- “Boburnama”ning qomusiy asar sifatida o‘zbek va jahon adabiyotida tutgan o‘rni belgilash;
- asarda keltirilgan kishi nomlarini tasniflash;
- “Boburnoma” tilida qo‘llanilgan Alloh sifatleri va diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan kishi nomlarini leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirish;
- asar tilida qayd etilgan arabcha va yahudiycha ismlarni ma’no jihatidan tahlil qilish va ular xususida umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning manbalari. BMI ga quyidagicha kitoblarni asosiy manba qilib oldik:

1. Nashrga tayyorlovchi Shamsiyev P. “Zahiriddin Muhammad Bobur” T:, Yulduzcha, 1989.
2. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi: (Izohli lug‘at). T:, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. Z.Rahim. Ism qo‘yish odoblari. T:, “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi. 2009
4. Ya.Minajiyev, X.Azamatov, A.Abdurahmonov, E.Begmatov, “Ismingizning ma’nosi nima”? T:, 1968

¹Mahmudov K. “Bobur-o‘zbek tilining bilimdoni”. Adabiy meros. 1988-yil. 29-32-betlar.

5. N.Muhammadhoshim. Ismlaringiz hosiyati: (ism shariflarimiz ma'nosi), G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa nashriyoti. 2003.
6. O. Ismatullayev. Ism-farzand iqboli. T:, "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2010.

BMIning metodologiyasi va metodi. Tadqiqotni "Boburnoma" da keltirilgan kishi ismlarining Shuningdek, o'zbek tili onomastik sohasidagi qilinishi kerak bo'lgan hozirgi kundagi muammolar tashkil etadi. Ishda ilmiy haqqoniylik va tadrijiylikka rioya qilinadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligining onomastika sohasida amalga oshirilgan monografik ishlar va ularning ilmiy xulosalari bitiruv malakaviy ishimizning diqqat markazida turdi. Tadqiqotda E.Begmatov, Z.Rahim, Ya.Minajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov, N.Muhammadhoshim, O.Ismatullayev, N.Bekmurodov singari nomshunos olimlarning onomastika sohasidagi tadqiqotlarida erishilgan yutuqlardan istifoda etildi.

Shuningdek, ishda tilshunoslikning onomastika sohasida natija berib kelayotgan usullardan foydalaniladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Boburning asarlari va ularning mazmuni xususida ilmiy ma'lumotlar berish.
2. Qomusiy asar bo'lmish, "Boburnoma"ning kompozitsiya va uning yozilish uslubini o'rganish.
3. O'zbek tilshunosligining onomastika sohasida qilingan ishlar va hozirgi kundagi o'zbek onomastikasining qo'llashning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish.
4. Boburning "Boburnoma" asarida keltirib o'tilgan kishi nomlari yuzasidan tasnifini amalga oshirish.
5. "Boburnoma"da qayd etilgan Alloh ismlari hamda diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan kishi nomlarini leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirish.

6. “Boburnoma”da ta’kidlab o’tilgan arabcha va qadimgi yahudiycha bo’lgan kishi nomlarini lug’atlar va tarixiy manbalar asosida leksik, grammatik va etimologik tadqiq etish va ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tilida qo’llanilgan kishi nomlari hanuzgacha onomastik nuqtayi nazardan maxsus ilmiy-tadqiqot manbai bo’lmagan. Shu sababli, mazkur asar tilida qayd etib o’tilgan diniy tushunchalar bilan bog’liq bo’lgan hamda arabcha va yahudiycha ismlarning onomastik nuqtayi nazardan tadqiq etilishi BMI ning ilmiy yangiligini belgilaydi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi, yana quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- tadqiqotda birinchi bor Boburning “Boburnoma” asari tilida nomlari kiritilgan kishi ismlari o’rganildi, ilmiy tasnif va tavsif etildi;
- Alloh ismlari bilan bog’liq bo’lgan kishi nomlari ma’no va so’z turkum jihatidan o’rganildi, ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi;
- tadqiqotda diniy tushunchalar bilan bog’liq bo’lgan ismlar alohida ajratilib, ularning yasalihi arab tili nuqtayi nazaridan o’rganiladi;
- arabcha va qadimgi yahudiycha kishi nomlarining etimologik, leksik-semantik ma’nolari ilmiy tahlil etildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu BMI tarixiy asarlarda qayd etib o’tilgan kishi nomlarining etimologik, leksik-semantik va grammatik tahlilini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqot ekanligi bilan ahamiyatlidir. Uning natijalaridan o’zbek onomastika sohasining quyidagi muammolarini yechishda istifoda etish mumkin:

- o’zbek tilidagi Alloh sifatleri bilan bog’liq bo’lgan kishi nomlarini ma’no jihatidan o’rganishda;
- o’zbek tilida kishilarga qo’yiladigan diniy tushunchalar bilan bog’liq bo’lgan arabcha moslashgan va moslashmagan aniqllovchili so’z birikmasidan yasalgan ismlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o’rganib ular xususida ilmiy xulosalar chiqarishdi;

-o'zbek tilidagi va tarixiy manbalarda keltirilgan kishi nomlarini ifodalovchi asl arabcha va qadimgi yahudiycha bo'lgan so'zlarning leksik va semantik ma'nolarini chuqurroq tushunishda;

-umum ta'lim maktablari, akademik litsey va kollejlarda atoqli otlarga bag'ishlangan mavzularni o'tishda, diniy tushunchalar va arabcha, yahudiycha kabi kishi ismlarini ma'no jihatidan o'quvchilarga tushuntirib berishda.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, har bob ikki faslni o'z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa 20 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning umumiy hajmi 64 betni tashkil qiladi.

I bob. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi

1.1. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek xalqining buyuk va zabardast olimi

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asr o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan yirik vakillaridan biri bo'lib, o'z ijodida Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Lutfiy, Navoiy an'alarini davom ettirgan buyuk shoirdir. Bobur asarlari o'zining yuksak g'oyaviyligi, chuqur mazmundorligi va badiiy ravonligi bilan ajralib turadi. U o'zining murakkab hayot yo'li, dunyoqarashi, Shuningdek, boy adabiy-ilmiy merosi bilan o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi.

“Bobur o'zining 47 yillik umri mobaynida kattagina she'rlar to'plami tuzdi, “Mubayyin”, Risolai volidiya” nomli she'riy asarlar yaratdi, jahonga shuhrati ketgan qomusiy asar “Boburnoma”ni yozdi, “Xatti Boburiy” deb nomlangan yangi alifbo tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harf ishiga oid risolalari bilan ilmga katta hissa qo'shdi. Afsuski, Boburning qofiya, musiqa va harf ishiga oid risolalari, qo'lyozmalarining miqdori hamon bizga nomalum.⁶

Boburning hozircha o'zbek va fors tillaridagi she'rlaridan tarkib topgan qator qo'lyozma devonlarining nusxalari mavjud bo'lib, ular Fransiya, Hindiston va Eron kutubxonalarida saqlanmoqda.

Boburning o'zbek adabiyotida lirik merosi hajman uncha katta bo'lmasa-da, mavzu doirasi, g'oyaviy mohiyati va shakliy takomili bilan ajralib turadi. Bobur lirikasi ma'lum darajada shoirning avtobiografiyasidir. Uning o'ynoqi va ta'sirchan, sodda va ravon tilda aytilgan she'rlari hayotiy hodisalar va turmush voqealari zaminida namoyon bo'ladigan shoir qalb tug'yonlarini ifodalaydi.

O'z hayoti davomida charxning ne-ne jabru jafolarini tortgan, “ahli jahondin yaxshilikni kam ko'rgan, sharoit taqazosi bilan” o'z yurtini qo'yib, hind sorig'a yuzlangan” buyuk bobokalonimiz barakali ijod qilib, insoniyatga nodir badiiy-ilmiy asarlarini meros qoldirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan badiiy adabiyotga, she'riyatga qiziqqan, Atoiy va Sakkokiy, Lutfiy hamda Navoiy kabi o'zbek shoirlari: Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Sadiy, Jomiy kabi fors shoirlarining asarlarini qunt bilan mutolaa

¹Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.; O'zbekiston. 2011.

qilgan. U 1506-yilning kuzida Hirotda bo'lganida Alisher Navoiyning uyida yashab, ulug' shoir qalamiga mansub bo'lgan "Xazoyinul-maoniy"ning nodir qo'lyozmasi bilan tanishib chiqqan va undan devon ham tuzgan edi.

"Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hirdin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim".⁷ "Odina kuni, oyning yigirma uchida Alisherbekning to'rt devondin buhur va avzon tartibi bila g'azallar va abiyotkim, intixob qililadur edi, it momig'a yeti".⁸

Bobur she'r san'atini ilhom va ishtiyoq bilan turli mashhur va mo'tabar manbalar orqali sinchiklab o'rganadi va nazm ishiga bel bog'laydi. "Boburnoma"da 1500-1501 yil voqealarini bayon qilar ekan, u shunday deydi:

"Ul fursotlarda biror, ikkirar bayt aytur edim. Vale g'azal tugatmaydur erdim".⁹

Bobur asta-sekin baytlardan tugallangan g'azallar, ruboiylar, tuyuqlar, masnaviylar bitib, she'riy kamolot cho'qqisiga ko'tariladi. "Boburnoma"ni ko'chiruvchi kotib kitob oxirida o'z tilidan shunday yozadi:

"Va fazilat bobida kamlig'i yo'q edikim, nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alalxusus, turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur..."

Ma'lumotlarga qaraganda, Bobur umr bo'yi yaratgan lirik asarlaridan ikki devon tuzgan. Ularning birinchisiga Movorounnahr va Afg'onistonda, ikkinchisiga

Hindistonda yozgan she'rlarini kiritgan. Bobur hayot paytidayoq bu devonlarni ko'chirtirib, o'g'illari va boshqa kishilarga, jumladan Samarqand hokimi Fulod Sultonga ham yuborgan. Bu haqda "Boburnoma"ning 925 hijriy, 1519 milodiy yil voqealari bayonida shunday deyiladi:

Hofiz Mir kotibning og'a-inisi Samarqanddin qolib erdi, bu fursatga Samarqandg'a ruhsat berib, Fo'lod Sultong'a devonimni yubordim".¹⁰

Boburning bizgacha yetib kelgan nazmiy merosi 4000 misraga yaqin bo'lib, ular g'azal, ruboiy, turoq, qit'a, fard va masnaviylardan iborat.

¹ Nashrga tayyorlovchi Shamsiyev P. "Boburnoma". 1989. 220-bet.

² O'sha asar 72-bet

³ O'sha asar 228-bet

“Shoir nazmiy asarlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular mumtoz adabiyotimiz an’analari asosida yaratilgan bo’lsa ham, uslubining sodda va ravonligi, hajmining ixchamligi, ko‘proq real hayotiy voqea-hodisalar zaminida maydonga kelgani bilan ajralib turadi. Natijada, uning she’rlarida tarixiylik bilan realizm, hayotiylik bilan badiiylik, hissiy kayfiyat bilan haqqoniy ifoda o‘zaro uyg‘unlashib boradi. Bu holat shoir ijodiy uslubini o‘ziga xosligini ham belgilaydi”.¹¹

Shoirning nazmiy asarlarining markazida muhabbat mavzusi, insonning pok sevgisini ulug‘lash, visol orzusi, vafodorlik motivlari turadi. Shoir yor visoliga erishishda har qanday qiyinchiliklarga bardosh berajagini ta’kidlaydi. Yorsiz, seviklisisiz hayotni tasavvur qila olmaydi sevgi muhabbat yo‘lida o‘zini, butun borliqni qurbon qilishga tayyorligini samimiyat bilan ifoda etadi.

Bobur tushunchasidagi sevgi-sadoqat, vafodorlik, oliyjanoblikdir. Shoir ishq-muhabbatini molu dunyo, mansab va dunyodagi barcha huzur-halovatlardan yuqori qo‘yadi. Bobur o‘zining ajoyib g‘azallarida orginal badiiy vositalar orqali mahbuba qiyofasini ma’naviy go‘zal, mazmunan boy, zoxiran mislsiz chiroyga ega qilib tasvirlaydi:

Jonima o‘t soldi ul ruhsorayi zebo yana,
 Ko‘nglima ul zulf bo‘ldi moyayi savdo yana.
 Ko‘rsatib ruhsoru zulfin ul pariy paykar manga,
 Jonu ko‘nglimni qilubdur vo lovu shaydo yana.
 Yor qo‘ynidagi tom sensan manga pushtu panoh,
 Soyayi lutfingni sol, mun sanga keldim to yana.
 Shodlikniyu farog‘atni qo‘yub oshiq bo‘lub,
 Mehnatu g‘amni qilibmen o‘zuma paydo yana,
 Yorg‘a qulmen degach Boburni rasvo ayladi,
 Tengri mendek bandasini qilmasun rasvo yana.

Bobur ishqning eng nozik hissiyotlarini, insoniy sevgining barqarorligini kuylar ekan, u o‘z davrida jamiyat illatlariga dadillik bilan qarshi chiqadi.

¹¹ Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.; 2011. 12-bet.

Ularning kirdikorlarini fosh qiladi. Shoir she'rlarida hayotiy tor ma'noda tushunuvchilar qattiq tanqid ostiga olinadi. Ularning o'rinsiz ta'na va da'volariga qarshi o'tkir qalami qaratiladi. Shoir yor hajrida barcha huzur-halovatidan ham voz kechadi va bu borada shunday yozadi:

Hajr o'turdi meni, onglasam erdi muncha,
 Do'stlar, yordin ayrilmas edim o'lguncha.
 Zohida, do'zax o'tidin meni ne qo'rqutasen,
 Hajr o'ti qoshida ko'rmasmen oni uchquncha.
 Ul quyosh mehrini bir zarra menga ko'rguzmas,
 Kavkabi ashk to'kub bo'lsam agar gardunga.
 Husnda ortuq agar bo'lsa yuzi Laylodin,
 Men taqi bomen aning ishqida yuz Majnuncha.
 Rindlar oldida hayvon suyini ko'p o'chasen,
 Ey Xizr, bormu ekin ul su mayi gulguncha.
 Boburo, she'ringga gar solsa quloqul shohing,
 Bo'lg'usidir so'zingga qadr duri maknuncha.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Bobur asarlarida haqqoniy tasvir uslubi hissiy tasvir uslubidan ustunlik qiladi. Misol uchun, shoirning quyidagi g'azalini olaylik:

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim,
 Ko'rub rahm aylagil, ey lolaruh bu chehrayi zardim.
 Sen, eygul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
 Oyog'ingg'a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.
 Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,
 Men archa dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim.
 Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
 Be har range, bihamdulloh, ulusdin o'zni qutqordim.
 Ne toledur mangakim, antari baxtim topilmaydur,
 Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.
 Ulusning ma'nu ta'rifi menga, Bobur barobardur,

Bu olamda o‘zumni gun yamon-yaxshidin o‘tkardim.

Mazkur g‘azal oshiqona mavzuda bo‘lib, shoir ma’shuqaning iltifotsizligidan shikoyat qiladi. Oshiq ma’shuqaning gul yuziga yetishish ishtiyoqida xazondek sarg‘ayganligini ta’kidlab, lolaruh mashuqadan uning sarg‘aygan chehrasini ko‘rib iltifot qilishini so‘raydi. Ma’shuqaning iltifotiga sazovor bo‘lmagan oshiq hayotdan kechishga ham rozi, lekin bunda ma’shuqani qoralamaydi, aksincha, unga baxt va ”latofat gulshanida xurramlik” tilaydi.

G‘azalning bu avvalgi uch baytida an‘anaviy ta’sir usullari orqali (tazod, tashbehi muzmar) oshiqning ma’shuqa iltifotsizligidan kechirgan ruhiy holatlari talqini berilgan bo‘lsa, keyingi uch baytda, xususan, beshinchi, otinchi baytlarda shoirning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq misollar yoritiladi. Bobur o‘zining baxti kulmagani, o‘z toleini hayot dasturi varaqlaridan izlab topa olmagan, umrini yaxshi va yomon ishlar bilan o‘tkazgani, shuning uchun ham unga kishilarning ta’rif va an’anasining ahamiyati yo‘qligini bayon qiladi. G‘azaldagi ruhiy kechinmalar talqini shuni ko‘rsatadiki, shoir unda an‘anaviy muammolarni aks ettirish bilan birga, aniq shaxs, ya’ni o‘z hayoti bilan bog‘liq haqqoniy kayfiyatlarini tasvirlay olgan, hayotiy kayfiyat bilan hayotiy haqiqatni mushtarak yorita olgan.

Boburning aksariyat she’rlarida ona diyor ramzi vositasida yurtga bo‘lgan sog‘inch, ayriliqdan o‘kinch hislari ifoda etiladi:

G‘urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur,
 Hijron bila g‘urbat menga ta’sir qilibtur.
 Maqdur boricha qiluram sa’yi visoling,
 To tengri bil manki, ne taqdir qilibtur.
 Taqdirdur ul yonu bu yon solguchi, yo‘qsa,
 Kimga havosi Sanbalu, tatyir qilibtur.
 Bu Hind yeri hosilidin ko‘p ko‘ngul oldim,
 Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
 Sendin bu qadar qoldi yiroq o‘lmadi Bobur,
 Ma’zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Bobur o‘z she‘riyatida adolat tuyg‘usini bosh mavzulardan biri sifatida talqin etib, bu borada ancha ilg‘or ijtimoiy fikr va g‘oyalarni ilgari surgan. Ular ko‘proq ruboiylarda o‘z aksini topgan.

Xususan, shoir insonga xos yuksak va tuban tuyg‘ular to‘g‘risida fikr yuritib, oliyjanoblik taqdirlashga, pastkashlik esa jazolashga loyiq ekanini ta’kidlaydi:

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidir,
 Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidir.
 Yaxshi kishi ko‘rmagay yamonlig‘ hargiz,
 Har kimki, yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Bobur ijodidagi ana shu hayotiylik xususiyati uning boshqa she‘rlarida ham mahorat bilan tarannum etilgan.

G‘ofil o‘lsa, ey soqiy, gul chog‘in g‘animat tut,
 Vaqti aysh emas boqiy, ol chog‘ir, ketur, bot tut.
 Bu nasihatim angla, ne bilur kishi yongla,
 Ne bo‘lur ekin tongla, sen bu kun g‘animat tut.

Albatta , Bobur dahriy bo‘lgan emas, u dinni, diniy aqidalarni qoralagan ham emas. Lekin uning bu sohadagi teran fikrlari, o‘zi yashagan sharoit nuqta - nazardan qaraganda, favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa edi. Bunday yondashuv Bobur lirikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shoir ijodiga o‘ziga xos ma’no-mazmun va joziba bag‘ishlaydi.

Bobur ijodida g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, fard janrlaridan tashqari, masnaviy janridagi kichik asarlar ham bo‘lib, ular o‘z xususiyati jihatidan adabiyotimiz tarixidagi noma janriga yaqin turadi. Chunki ularning ko‘pchiligida soboga murojaat etilib, yorga salom yetkazish iltimosi va iltifotsiz yordan gina qilish kayfiyati asosiy o‘rin tutadi:

Savbo, ul gul harimig‘a guzar qil,
 Mening holimdin ul gulga xabar qil.
 Yoki:
 Ey sabo ,yelkamni qo‘yg‘il, jazm qil,

Sarvinozim kuyi sori azm qil.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Bobur bu janrga faqat oshiqona his-tuyg'ularni ifodalash vositasi deb qaramagan. Uning ayrim nomalari tarjimai hol xususiyatini ham kasb etgan. Bu, albatta, shoir nazmining o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi.

Bobur asarlarida o'zi yashagan muhitdan, zamondan norozilik, taqdir o'yinlariga qarshi achchiq nolishlar baralla eshitilib turadi.

Bularning barchasi uning she'riyatiga falsafiy teranlik va ijtimoiy ruh bag'ishlaydi.

Bobur poetikasida vatan mavzusi alohida o'rin tutadi. Uning aksariyat g'azallaridagi hijrondan shikoyat, ona yurtga bo'lgan muhabbat, vatanni qo'msash kabi dil sadolari o'quvchini chuqur o'yg'a soladi. Shoirning g'urbat va hijron bilan bog'liq bo'lgan voqeiy kechinmalari qator ruboiylarida ham o'z ifodasini topgan. Ular orqali biz vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat tuyg'ulari bilan dardlashamiz:

Hijron qafasida jon qushi dam qiladur,

G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.

Ne nav bitay firoqu g'urbat sharhin,

Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Bobur she'riyatida inson kamolotidagi ahloqiy va ma'naviy masalalarga ham keng o'rin berilgan. Shoir insonni ulug'laydi, unga hurmat nazari bilan qaraydi, inson qadr-qimmatini yuqori ko'taradi. U do'stlik, birodarlik, vatanga sadoqat kabi sifatlarni olqishlaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, xasislik, riyokorlik, kabi yaramas illatlar insonni halok etadi. U kishining hayoti yahshilik, kabi ezgu maqsadlarga qaratilishi kerak deb biladi. U mansab va davlatga erishib g'ururlanmaslik, kamtarin bo'lish kabi insoniy fazilatlarining kamol topishiga undaydi. Ota-ona bilan farzand o'rtasida mehr-muhabbat, ehtirom kabi insoniy fazilatlar barqaror bo'lishini istaydi:

Otani chunki qibla debturlar,

Qibla yanglig' anga nazar qilg'il.

Ota ogʻritma, ey otam zinhor.

Ota ozoridin hazar qilgʻil.

Bobur ahloq-tarbiya masalasiga alohida eʼtibor bergan, shoirning maʼnaviy-falsafiy qarashlarini va ijtimoiy mavzularga boʻlgan munosabatini aniqlashda uning, ayniqsa, muammolarini oʻrganish katta ahamiyatga egadir:

Xulqingni rost qilgʻil har sarigʻakim borsang,

Ahsanta der bori el gar yaxshi ot chiqar sang.

Boburning yuqoridagi muammosi zaminidagi mazmun va insoniy his-tuygʻular ulugʻ soʻz sanʼatkori tomonidan yuksak mahorat bilan ifoda etilgan. Shoir haqiqiy inson nomiga ega boʻlish uchun ahloqning barcha normalariga rioya qilish kerakligini, shundagina kishi el hurmati va baxtga sazovor boʻlishini uqtiradi.

Bobur ahloq-tarbiya mavzusidagi boshqa asarlarida ham oʻz hayotida yuz bergan hodisalar, boshidan oʻtkazgan kechinmalari asosida oʻquvchi uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan xulosalar chiqaradi.

Umuman, Bobur sheʼriyati oʻzining janr xususiyatlari, mavzu doirasi bilan oʻzbek adabiyotining nodir namunalari qatoridan faxrli oʻrin egallaydi. Ularda hayot va insonni qadrlash, goʻzallikdan bahramand boʻlishga intilish haqida nafaqat oshiq va orif insonning, balki muallifning shaxsiy qarashlari ham oʻz aksini topgan. Shuning uchun ham Bobur sheʼriyatini ul zot yashab oʻtgan murakkab davrning oʻziga xos badiiy koʻzgusi deyish mumkin.

1.2. “Boburnoma” buyuk qomusiy asar

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun jahonga tanitgan qomusiy shoh asardir. U nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o‘rin egallab kelmoqda. “Boburnoma” tarixiy-badiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba bo‘lishi bilan birga, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir. Unda Bobur yashab ijod qilgan davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti badiiy shaklda o‘zining yorqin ifodasini topgan; voqealar qiziqarli, ravon va sodda tilda bayon qilingan. “Boburnoma” yozuvchi xotirotlari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini muallifning o‘zi “Vaqoyi’noma” , ya’ni “Voqealar kundaligi” deb atagani bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Boburning o‘zi. Yozuvchining o‘zi ham bu haqda shunday deb yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoyi”ni o‘qur, bilgaykim,
Ne ranju mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum.

Bu asar boshqa manbalarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyichalik esa uni “Boburnoma” deyish rasm bo‘lib qolgan.

“Boburnoma” ning yaratilish tarixi haqida olimlar turli fikrlarni bildirishadi. Kitobni bir karra varaqlab chiqqan o‘quvchi bo‘lajak ayrim voqea va hodisalar oldindan bayon etilganligiga guvoh bo‘ladi. Bu esa, asar Bobur hayotining so‘nggi yillarida yozilganligidan dalolat beradi. Olimlarning aksariyat qismi “Boburnoma” Yozuvchi hayotining oxirgi yillarida, aniqrog‘i, 1525-1530 yillarda yozilgan, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar. Asarda 1494-1530-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergan tarixiy voqealar Bobur hayoti bilan chambarchas bog‘langan holda bayon etiladi. “Boburnoma” 12 yashar Boburning otasi Umarshayxning vafotidan so‘ng Farg‘ona viloyatiga podsho

bo‘lganidan boshlanib, to umrining oxirigacha ro‘y bergan voqea va hodisalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Afsuski, bu asar qo‘lyozmalarining bizgacha yetib kelgan nushalarida Bobur xotiralarining 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530-yillardagi voqealari yo‘qolgan. Lekin shunga qaramay, Bobur kundaliklari o‘zining tuzilishi va g‘oyaviy yo‘nalishi nuqtayi nazaridan bir butun asarligicha saqlanib qolgan. “Boburnoma” asosan uch qismga bo‘lingan. Birinchi qismda Boburning Movarounnahrda podsholigi bilan bog‘liq voqealar, ona zamin tabiati va uning ne‘matlari, otasi Umarshayxning nasl-nasabi, oilaviy hayoti, yurish-turishlari, saroydagi mansabdor tarixiy shaxslar, ularning o‘rni va faoliyati, xususan, ilm-fan, san’at hamda adabiyot namoyondalari haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilinadi.

Bu davrda Bobur Samarqandni davlatning markazi qilishga harakat qiladi, shu maqsadda bir necha bor uni ishg‘ol ham qiladi. Biroq uning maqsad va harakatlari turli sabablarga ko‘ra amalga oshmaydi, shuning uchun Bobur o‘zga yurtga qarab yuzlanishga majbur bo‘ladi. “Boburnoma”ning Movarounnahr davri tavsifida turli toifadagi, tabaqadagi kishilarning hayoti, shahar va qishloqlarning manzarasi, nabotot va hayvonot olami, ob havosi, aholisi va ularning etnogenezi, tili, urf-odatlarini hayotiy qilib tasvirlanadiki, natijada o‘quvchi Boburning donishmandligiga qoyil qoladi. Muhimi, Bobur haqiqatni gapirganida hech kimni ayamaydi. Har qanday voqea yuz bermasin, har qancha ulug‘ martabali yoki mansabdor shaxs haqida gap bormasin, u voqea hodisalarga, kishilarning yurish-turishlariga, ularning insoniy xislatlariga haqqoniy baho beradi. “Boburnoma”da yozuvchi Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyatlaridagi shaharlarning tarixi, ular atrofida tabiatning go‘zal manzaralari, oqar suv va chashmalari, umuman ona zamin shunchalik joziba bilan tasvirlaydiki, bular Bobur iqtidori va ona yurtga bo‘lgan kuchli muhabbatining haqiqiy inikosidir.

“Boburnoma”ning ikkinchi qismi Afg‘onistondagi voqealar bilan bog‘liq, asarda Bobur qanday qilib Kobul va uning atrofida yerlarni bosib olgani, afg‘on qabilalarini bo‘ysundurib, yangi davlat barpo etganligi to‘g‘risida ehtirolarga to‘lib gapiriladi. Bobur Afg‘onistonning ayniqsa, xushhavo Kobul manzarasini

maroqli va jozibali badiiy til bilan hikoya qilar ekan, uning tasvirini turli qiziqarli sarguzasht, rivoyat va o'zining o'tkir mushohadalari bilan yaratilgan she'riy lavhalar, rang-barang badiiy vositalar bilan bezaydi. Natijada Bobur esdaliklari kitobxonning diqqatini o'ziga beixtiyor jalb etadi va o'quvchi asarning qahramoni-Bobur bilan birgalikda voqealarda qatnashayotgandek sezadi o'zini. "Boburnoma"ning yuksak badiiyligi ham ana shundadir. Masalan, Bobur Kobul viloyatining aholisi haqida gapirar ekan, uni shunday ta'riflaydi:

"Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va a'robdur. Shahrida va ba'zi kentlarida sortlardur. Yana ba'zi kentlarida va viloyatida pashoyi va paroji va tojik, baraki va afg'ondur. G'arbiy tog'larida hazora va nakdariylar. Bularning orasida ba'zi mug'uliy til bila hikoyat qilurlar...O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar... Muncha muhtalif aqvom va mug'ayyir alfoz ma'lum emaskim, hech viloyatta bo'lg'ay" (Boburnoma, 189-bet). Bobur Kobul manzarasining bahor faslida mislsiz go'zalligini tasvirlar ekan, unga bo'lgan muhabbati, ehtiroslarini quyidagi misralarda to'liqlanib ifoda etadi:

Sabzayu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,

Xossa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor.

Bu misralar bilan shoir Kobulga bo'lgan dildagi muhabbatini ifodalagan bo'lsa, uning vafotidan so'ng hokini Kobuldagi o'zi yaratgan bog'ga qo'yishlarini istab farzandlariga qoldirgan vasiyati esa Bobur bu shaharni naqadar sevishining amaldagi isbotidir, deb qaramoq kerak.

Boburning Afg'onistondagi hayoti va faoliyati, prof. B.Valixo'jayev ta'kidlaganidek, "Bobur siyosiy faoliyati uchun yana boshqa, yana katta voqealarga o'tish ko'prigi vazifasini o'tagan. Bu katta voqea esa. Hindistonni qo'lga kiritishdan iborat bo'lgan. Ana shu maqsadga erishish esa 1519 yildan qat'iy vazifa qilib qo'yilgan va shunga tayyorgarlik ishlari ko'p yillar mobaynida rejalashtirilgan edi".

Bobur hayotining Hindiston davri turli ajoyib va g'aroyib voqealarga to'lib-toshgan. Uning o'zi bu haqda shunday deb yozadi: "G'arib mamlakate voqe

bo‘lubtur. Bizning viloyatlarga boqa o‘zga olamdur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavoze va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘iri va eli barcha o‘zgacha voqi bo‘lubdur” (Boburnoma, 342-bet).

Boburning avlodlarga qoldirgan boy va bebaho ilmiy-adabi merosida buyuk ajdodimizga jahoniy shuhrat keltirgan asari, shubhasiz, “Boburnoma”dir.

Ma’lumki, “Boburnoma” xronologik jihatdan to‘liq emas, asarda voqealarni yillar bo‘yicha bayon qilishda qator uzilishlar bor. “Boburnoma”ni fransuz tarjimoni Pave de Kurteylning tasdiqlashicha, yillar bo‘yicha bunday uzilishlar asl nushada ham, forsha tarjimada ham mavjud. Bular inglizcha tarjimada ham o‘z aksini topgan. “Boburnoma”ning bu qadar ko‘p tillarga tarjima qilinishi, qayta-qayta nashr etilishi, jahon bo‘ylab shuhrat topishiga sabab, tasvirning g‘oyat keng qamrovliligi, XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, jo‘g‘rofiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, bu mamlakatlarning xalqlari, ularning yashash tarzi, tili, urf-odatlar va boshqa jihatlar haqida ishonchli ma’lumotlarga boy qomusiy asar ekani hamda asar muallifining bilim va qiziqish doirasining beqiyosligi, voqea-hodisalarning rostgo‘ylik bilan hamda ixchamligidir, desak aslo xato bo‘lmaydi.

Ma’lumki, “Boburnoma” memuar asardir. Bunday asar, odatda, muallifning davr-zamonga, o‘tmishga oid xotiralarini, ko‘rgan va eshitganlarini ma’lum tartibga solib ifoda etishi natijasida vujudga keladi.

Bu janrga xos asarlarda, ayniqsa, bo‘lib o‘tgan voqealarni birmuncha keyin tasvirlovchi memuarlarda muayyan darajadagi badiiy chizgilarni, tarixiy voqealarni bevosita aks ettirish bilan birga, umumlashtirib tasvirlash xususiyatini ham ko‘rish mumkin. “Boburnoma” ana shunday murakkab tarkibli memuarlar qatoriga kiradi. Muallif uzoq muddat orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealarga ma’lum bir nuqtayi nazardan qaraydi va baho beradi.

U tasodifiy hodisalar, ikir-chikirlarni mumkin qadar qalamga olmaslikka, asosiy voqealarni tanlash, saralashga katta ahamiyat beradi, asarning badiiy ifoda kuchini oshirishga harakat qiladi. Lekin asarda voqealar xronologik tartibda bayon qilingani va unda XV asr oxiri –XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Xuroson,

Afgʻoniston va Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar tasvirlangani uchun u boshdan-oyoq tarixiy xususiyat kasb etadi.

Bu asarda temuriy hukmdorlarning oʻzaro urush-talashlar oqibatida birin-ketin magʻlubiyatga uchrashi, jumladan, Abusaid mirzo vafotidan keyin uning oʻgʻillari (Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud va boshqalar) oʻrtasida chiqqan janjallar, Bobur va uning amakivachchalari, beklarning oʻgʻillari orasidagi nizolar, temuriylar bilan Shayboniyxon oʻrtasida Movarounnahr uchun olib borilgan qonli kurashlar, ayrim noqobil hukmdorlar saroyidagi aysh-ishrat, fitnalar, shuningdek, Bobur tomonidan Afgʻoniston va Hindistonning egallanishi, hind, afgʻon qabilalarining qarshiligi va ularning bostirilishi-barchasi haqqoniy tarzda, oʻsha zamonga xos jimjimador va balandparvoz tasvir uslubidan farqli oʻlaroq, gʻoyat goʻzal, jonli yoʻsinda hikoya qilinadi.

Boburning oʻzi bu haqda shunday deydi: “Chun bu tarixda andoq iltizom qilibturkim, har soʻzning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay”.

Maʼlumotlarning koʻpligi, aniq va toʻlaligi, tarixiy voqealarning rostgoʻylik bilan bayon etilishi, xronologik izchillik, ifodaning soddaligi va ravonligi ”Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u koʻpgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi.

Maʼlumki, Sharq muarrixlarining aksariyat kitoblarida tarixiy dalillar afsona va rivoyatlar bilan bogʻlanib ketadi, qalamga olinayotgan voqealar muallifning podsho va hukmdorlarga boʻlgan munosabatidan kelib chiqib tasvirlanadi, birovlarini ataylab maqtab koʻkka koʻtarish, boshqa birovlarini esa kamsitib yerga urish tamoyili ham ustunlik qiladi. ”Boburnoma”da esa bunday biryoqlama qarashlarni koʻrmaymiz, aksincha, unda ijtimoiy-siyosiy voqealar holis va izchil tasvirlangani tufayli oʻsha davrdagi hokim tabaqalarning fazilat va kamchiliklari ham aniq-ravshan aks etadi va sharq feodalizmining oʻziga xos ayrim xususiyatlari yaqqol namoyon boʻladi. Bularning barchasi ”Boburnoma”ni aniq tarixiy dalillarga boy boʻlgan beqiyos bir tarixiy asar deb aytishga asos beradi, uning

muallifi esa, avvalo, bilim va tafakkur doirasi juda keng bo'lgan alloma shaxs sifatida gavdalanadi.

“Boburnoma” faqat tarixiy asar emas. Unda o'sha davrdagi bir qator fanlar (jo'g'rofiya, nabodot, hayvonot, etnografiya, harbiy usul va boshqalar)ning ilmiy yutuqlari ham o'z ifodasini topgan. Bobur tog' va daralar, ko'l va daryolar, xilma-xil o'simliklar, hayvonlar, turli hudud va mintaqalarning yer osti va yer usti boyliklari, u yerlarda yashaydigan xalqlarning urf-odati, tili, adabiyoti va san'ati, ayrim so'zlarning kelib chiqish kabi masalalar bilan ham astoydil qiziqadi. Muallif bularning hammasini erinmay kuzatadi, turli kasbdagi kishilardan ma'lumotlar to'playdi.

“Boburnoma”da mamlakat va o'lkalar, shahar-qishloqlarning siyosiy tarixi bilan birga, tabiati, xo'jaligi, ilm-fani, madaniyati va boshqa jihatlari ham mukammal tasvirlanadi. Masalan, muallif Kobul viloyatini tasvirlar ekan, uning jo'g'rofiy o'rnini, chegaralari, yaylovlari, o'simlik va mevalari, daryo hamda ko'llari, xalqi, uning kasb-kori, urf-odati, tili, savdo-sotiq ishlari va boshqalar haqida batafsil va qimmatli ma'lumotlar beradi.

“Boburnoma”da ana shunday xilma-xil ma'lumotlar shu darajada ko'p uchraydiki, ilm-fanning deyarli barcha sohalaridagi mutaxassislar bu asardan bahramand bo'la oladi. Bu dalillarning haqqoniyligi tufayli tarixchi o'sha davrdagi O'rta Osiyo, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston tarixiga tegishli muhim ma'lumotlarga ega bo'lsa, tabiatshunoslar mazkur o'lkalarning topografiyasi, iqtisodiy jo'g'rofiyasiga oid yangiliklarga, hayvonot olami bilan shug'ullanuvchilar esa shu mamlakatlardagi hayvonot olamiga taaluqli bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi, o'simlikshunoslar o'simliklar dunyosi bilan tanishadi, etnograf olimlar shu joylarda yashaydigan turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlariga doir qiziqarli tafsilotlarga duch keladi, tilshunoslar o'zbek adabiy tilining shu davrdagi ahvolini, adabiyotshunoslar esa shu davr adabiy muhitini tasavvur qila oladi.

O‘zining ana shu fazilatlarini bilan ”Boburnoma” uzoq zamonlardan beri butun dunyoda ko‘plab soha olimlarining diqqat-e’tiborini jalb qilib keldi va ular tomonidan yuksak baholandi.

“Boburnoma”ni g‘arb tillariga tarjima qilgan J.Leyden, V.Erskin va boshqalar bu mumtoz kitobga asosan tarix asari sifatida yondashib, o‘z tarjimalariga yozgan so‘z boshi va izohlaridan uni XV asr oxiri va XVI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aniq tasvirlovchi tarixiy hujjat, ana shu hududlarning jo‘g‘rofiyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, etnografiyasi haqida ishonchli ma’lumot beruvchi manba deb baholaganlar. Shuningdek, Leyn Puul, Eduard Holden va boshqa tarixchilar ham asarning umumiy mazmuni haqida fikr yuritish bilan birga, muallifning hayoti va shaxsiyati haqida o‘z qarash va mulohazalarini bayon qilganlar.

Ularning hammasi Boburning insoniy fazilatlarini, chunonchi, uning yirik lashkarboshi, har qanday qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, ijod ahlini qadrlovchi oliyjanob shaxs ekanini yakdillik bilan ta’kidlaydilar. Ular “Boburnoma”ning ayrim xususiyatlari, Boburning zamondoshlari haqida ham o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Masalan, ingliz tarixchisi Leyn Puul shunday yozadi: “Uning memuarlari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas; bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o‘rganadigan, ular haqida holis va odil fikr yurita oladigan mutaasir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taasurotlari nozik fikrlari berilgan”.

II bob. “Boburnoma”da onomastik nomlar

2.1. Onomastika haqida ma'lumot

Ma'lumki, tilshunoslikda ot turkumiga mansub so'zlar ikki katta guruhga ajratiladi: turdosh otlar va atoqli otlar.

Turdosh otlar muayyan turkumga (turga, jinsga, naslga, shaklga, ma'noga) ega narsa va hodisalarni guruhlab, umumlashtirib ataydi. Masalan, har qanday o'rik –“o'rik” so'zi bilan ifodalanadi. Ba'zan o'rikning farqli navlari ham umumiy tarzda muayyan guruhga tasniflab nomlanadi: qandako'rik, oqo'rik, bozoro'rik va boshqalar. Xuddi shuningdek, har qanday toshlarning umumiy nomi „tosh” so'zidir. Toshning turlari bo'lmish harsang, qoratosh, oqtosh va boshqalar ham o'sha turkumga mansub har qanday toshning umumiy, umumlashgan nomi bo'lgani uchun turdosh deb yuritiladi.

Bizni o'rab olgan borliq, moddiy olam nihoyatda murakkab, boy, serqirra , rang-barang bo'lib, uni tashkil qilgan narsa va hodisalar mohiyati, holati, shakli ko'rinishi hamda vazifasiga ko'ra farqlanadi.

Turdosh ot termini bilan yuritiluvchi so'zlar mana shu xususiyatdan bir qisminigina, ot kategoriyasiga kiruvchilarinigina ifodalaydi.

Narsa va hodisalarni, mohiyat va harakatni umumlashtirib, guruhlab atash faqat turdosh otga emas, balki boshqa tip so'zlarga ham xosdir. Masalan: tabiatda uchraydigan har qanday rang, uning barcha ko'rinishlari haqidagi tushuncha “rang”, “tus” so'zlarida mujassamlanadi. Insonning didiga mos, kelishiklarning ezgu niyatlariga, estetik talablariga mos tushuvchi narsa va hodisalar haqidagi barcha tushunchalar “yaxshi” so'zi bilan, buning teskarisi esa “yomon” so'zi bilan ifodalanadi. Tushunchalarni mana shu kabi umumlashtirib atash barcha so'z turkumiga xos... “Ishlamoq” fe'li mana shu jarayon bilan bog'liq har qanday harakatlarning umumiy nomidir.

Ammo insoniyat jamiyati tarixi, til tarixi til vazifasini tafakkurning faqatgina umumlashtirish uslubidan ish ko'rgan holda ado etishi mumkin emasligini, ba'zi narsa va hodisalarni, obyektlarni alohida, yakkalab olingan holda nomlash hayotiy zaruriyat ekanini ko'rsatgan. Bunda bir tur, guruhga mansub

narsalardan bittasi (bir donasi) ajratib olingan holda nomlanadi. Bunda ajratib olinayotgan narsa yoki obyektning unga nom berayotgan kishilar hayotiy ehtiyojlari uchun muhimligi, o'sha obyektning boshqalariga nisbatan qandaydir farqli xususiyatlariga egaligi muhim rol o'ynagan. Chunonchi, kishilar o'zi yashab turgan hududdagi daryolarni, ko'llar, buloqlarni va ularni tashkil qilgan har bir daryo, har bir ko'l, har bir buloqni bir-biridan farqlash uchun ularga alohida-alohida nom bergan: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Toshbuloq, Qo'tirbuloq kabi. Demak, atoqli otlar narsa va hodisalarni, obyektlarni yakkalab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga kelgan. Bunday zaruriyat bo'lmagan holda ularga berilgan umumiy nom bilan chegaralangan.

Umumlashtira olish qobiliyati-inson tafakkurining gultojidir. Agar mana shu xususiyat bo'lmaganida til million, milliardlab so'zlardan va grammatik vositalardan iborat bo'lgan super murakkab va tushunarsiz hamda o'rganib, egallab bo'lmaydigan hodisaga aylanar edi. Fan tabiatda yuzming xil hid mavjudligini aniqlagan. Atirgulning hidi 50 dan ortiq ekan. Ammo bu hidlar o'zbek tilida hid, isbo'y yoki sassiq, xushbo'y, badbo'y, hidli, yoqimli hid singari bir qator so'z va so'z birikmalarida umumlashtirib nomlanadi. Venger olimlarining aniqlashicha, bulbulning repertuarida 2000 xil kuy bor ekan. O'zbek tilida mana shu kuylarning barchasi kuy, sayrash, bulbul kuyi, bulbul xonishi kabi so'zlarda mujassamlashgan.

Mutaxassislarning kuzatishlaricha, tabiatda qariyb 1330 xil suv bor ekan. Suvning bir xillari yomg'ir yog'ishi tufayli, sizot suvlari, yangi yoki turib qolgan suvlar va boshqalar tufayli hosil bo'larkan. Hech bir tilda mana shu suv xillari alohida-alohida nomlangan emas. O'zbek tilida bu suvlar umumiy nom bilan suv deb, ba'zi xillari esa sho'r suv, shirin suv, sizot suv, qora suv, toza suv, iflos suv, aynigan suv, qor suv kabi so'z va iboralar orqali ataladi. Keltirilgan hidlar, kuylar va suvlarning har birini atoqli ot bilan donalab nomlash ehtiyoji ham, imkoniyati ham yo'q. Demak, narsa va hodisalarni yakkalab, donalab, atoqli ot berib nomlash o'ziga xos ehtiyojlar, qonuniyat natijasidir. Tilshunoslikda atoqli otlarga qaraganda, turdosh otlar va boshqa til turdosh so'zlar ancha mukammal

o'rganilgan. Buni o'zbek tilidagi turdosh otlar va boshqa tip so'z turkumlarining keng tahlil qilingani, ularning barcha lisoniy xususiyatlari tavsiflanganidan ham bilsa bo'ladi.

Atoqli otlar turkumi haqida bunday fikrni aytib bo'lmaydi. Chunki mavjud leksikologiya, grammatikalarda, imlo qoidalari va lug'atlarda atoqli otlarning to'rt-besh tipigina keltiriladi, turli lisoniy xususiyatlar tahlil qilinganda esa atoqli ot materiallari chetlab o'tiladi va boshqalar.

Atoqli otlarga bunday munosabatning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta ularning ba'zilar bizning nazarimizda quyidagilar:

1. Atoqli otlar turdosh otlar kabi lug'aviy ma'noga ega emas, tushuncha ifodalamaydi deb tushunish hamda atoqli otni to'laqonli so'z emas, balki ramziy, shartli belgi deb hisoblash.
2. Atoqli otlarning tilda muayyan kommunikativ ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan lisoniy birlik ekanini hamda ularning nutqdagi funksional o'rnini yetarli baholamaslik.
3. Tildagi atoqli otlarning boy materiali uning barcha ko'rinishlari, to'liq to'planmagan.
4. Atoqli ot materiallarining kam tadqiq qilingani va munosib ravishda ilmiy baholanmagani.
5. Atoqli otlarni tadqiq qilishning murakkabligi: atoqli ot materiallarini to'plashning sermashaqqatli, ularni tadqiq qilishning bir qator boshqa fanlarning (tarix, etnografiya, geografiya va boshqalar) yutuq usullari bilan ham bog'liqligi.
6. Atoqli otlarni tadqiq qilishning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari, ularning nazariy asoslari fanda yetarli ravishda belgilanmaganligi va boshqalar.

Bu nuqtayi nazarni ilmiy baholash atoqli otlarning mohiyati va lisoniy vazifalarini to'g'ri belgilash va asoslash ko'p jihatdan konkret tillar va umuman tillardagi atoqli ot materiallarini maksimum to'plash, bu nomlarning miqdoriy hajmi, til lug'aviy tarkibida tutgan o'rni, salmog'ini aniqlash, xuddi turdosh so'zlardagi kabi atoqli ot tiplarining tarqalish chegaralarini aniqlashga bog'liq. Bunda, ayniqsa, atoqli ot deb ataluvchi lisoniy birlik (onomastik kategoriya) javob

berishi lozim bo'lgan ilmiy mezon, talab va shartlarni aniq belgilash muhimdir. Chunki bunday ilmiy o'lchov atoqli ot deb hisoblanuvchi so'zni boshqa turdosh so'zlar hamda yondosh lug'aviy hodisalardan farqlash va chegaralashga imkon yaratadi.

Biror konkret tildagi atoqli otlarning mavjud tillari va hajmini aniqlay olish o'sha tildagi atoqli otlar doirasini, ular tarqalgan onomastik maydonni bilib olishga yordam beradi. Ushbu muammo onomastikaga oid tadqiqotlarda "onomastik ko'lam" deyilgan tushuncha bilan bog'langan holda talqin qilinmoqda, "Toponomik ko'lam" termini dastlab V.N.Toporov¹² tomonidan qo'llangan bo'lib, keyinchalik A.V.Superanskiy o'z ishlarida V.N. Toporovga taqlidan "onomastik ko'lam", "toponomik ko'lam" terminlaridan foydalanadi.¹³

"Prostranstvo" so'zi ko'p ma'noli bo'lib u:

1. falsafada fazo, makon, bo'shliq;
2. oddiy ma'noda: keng sath, maydon, joy, bo'shliq;
3. demak, bu termin onomastik sath, onomastik maydon deb ham olish mumkin.

Ammo onomastika sohasida biz ko'zda tutayotgan tushuncha mohiyatan uchta xususiyatni ifodalaydi:

- 1) biror-bir tilda atoqli otlarning qanday tiplari mavjudligi;
- 2) atoqli otlarning tarqalish chegaralari;
- 3) umuman bu tildagi onomastik leksikaning hajmi. Ushbu ma'nolarni anglatish uchun sath, maydon terminlari torlik qiladi.

Shu sababli biz "prostranstvo" so'zini "ko'lam" so'zi bilan berishni maqbul yo'l deb hisoblaymiz bu so'zning ma'nolari keng qamrovli hamda qayd qilingan tushuncha talabiga mos keladi. Bu unga berilgan izohdan ham anglashiladi. "Ko'lam". Biror ish, faoliyatning yoyilishi, qamrash doirasi, hajmi, miqyosi, rivojlanishi, avj olish darajasi"¹⁴ A.V.Superanskaya onomastik ko'lam tushunchasining to'g'ri va ko'lamliligini toponimik ko'lam misolida quyidagicha

¹ Топоров В.Н. Из области топонимистики. 1962. 3-4-с.

² Суперанская А.В. Общая теория имени советственного. М. 1973. -с141

³ Ruscha –o'zbekcha lug'at. Ikki jildlik. T.; 1984. 264-bet.

ta'riflaydi: Bu termin nomlar va nomlangan obyektlarning makonda joylashishi, yani ularning bir-biridan alohida holda mavjud bo'lishi va bu ularning yer yuzi, shuningdek,, undan tashqarida ekanligini ko'zda tutishi jihatidan ham qulaydir.¹⁵

Onomastik ko'lamni biror konkret tilidagi atoqli otlarning umumiy majmui, yig'indisi tashkil qiladi. A.V. Superanskaya fikricha: "Onomastik ko'lam bu muayyan xalq tilida real, taxminiy va hayoliy obyektlarni nomlash uchun qo'llanadigan atoqli otlar mavjuddir"¹⁶

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak o'zbek tilining onomastik ko'lamini bu tildagi barcha atoqli ot tiplari (ko'rinishlari)ning majmui tashkil qiladi. Bu jihatdan onomastik ko'lam onomastik leksika, til onomastik fondi, til atoqli otlar tizimi, tilning onomastik birliklari terminlariga yaqin turadi. Chunki o'zbek tili onomastik ko'lamida mavjud bo'lgan barcha atoqli otlar o'zbek tilining turdosh leksikasiga qarama-qarshi qo'yiluvchi hodisadir.

Onomastik ko'lam keng va tor ma'nolarga ega. Chunki onomastik ko'lamni tashkil qiluvchi kichik ko'lamlar ham mavjud. Shu sababli tilning umumiy onomastik ko'lamini superko'lam (eng yirik ko'lam) deb belgilash mumkin.

Onomastik tuzimni tashkil qiluvchi turli til atoqli otlarining o'zaro aloqalari va uni ifoda etuvchi jarayonlar ko'p qirrali hamda murakkab. Masalan: konkret onomastik birliklarning har biri (chunonchi, oykonim-Jizzax, gidronim-Oqdaryo, Qorasuv, antroponim-Azimbek, Gulbahor, kosmonim-Cho'lpon, Zuhul va boshqalar) superko'lam bilan uni tashkil qiluvchi atoqli tipi birligi sifatida bevosita bog'lanadi va unga kiradi. Shuningdek, bu birliklar superko'lam bilan o'zi mansub bo'lgan makro va mikro ko'lamlar orqali ham bog'lanadi, chunki bu ko'lamlar mohiyatan superko'lamga mansubdir.

Biz onomastik ko'lam tushunchasi, ushbu ko'lamni tashkil qiluvchi superko'lam, makro ko'lam, mikro ko'lam va oxirgi ko'lam tarkibida mavjud bo'lgan ba'zi ko'lamlarni ko'rib chiqdik. Endi o'zbek tili onomastikasining super

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: 414 –bet.

² O'sha kitob 151-bet.

ko‘lam, unga kiruvchi makro ko‘lamlar mohiyatini, ularning hajmi hamda xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Har qanday tilning, jumladan o‘zbek tilining onomastik tizimi miqdoran g‘oyatda ko‘pqirrali, hajman ulkan, nominativ, funksional xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi, shu bilan birga bir-biri bilan muayyan bog‘liqlik va munosabatda bo‘lgan lisoniy mavjudlikdir. Tilning leksik boyligi konkret lug‘aviy birliklar (leksemalar)dan iborat bo‘lganidek, tilning onomastik fondini onomastik leksika darajasida mujassamlashtiruvchi konkret atoqli otlar tashkil qiladi. Ushbu konkret nomlar onomastika “til birliklari”, . “leksik birliklar”, “nutq birliklari” deb yuritiluvchi terminlarga o‘xshatma (taqlidiy) tarzida onomastik birliklar deb yuritilmoqda. Onomastik birlik deyilganda, aslida konkret atoqli ot ko‘zda tutiladi.

Ozarbayjon tilshunosi A.Gurbanov ozarbayjon tilining onomastik birliklari (“vohidlar”) ga antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, koemonimlar, ktematonimlarni kirtadi. Odatda, lisoniy birliklar tilning ma’lum sathlari, sohasiga mansub bo‘ladi, uning mohiyatini tashkil qiladi. Tilda lisoniy birliklarsiz, lisoniy birlikka ega bo‘lgan sath mavjud emas. Shu sababli A.M.Gurbanov “onomakologiya” (onomastika)ni tilning alohida, mustaqil sathi sifatida ajratadi va uni leksikologiya, semasiologiya, frazeologiya, derivatologiya va boshqa sathlar bilan tenglashtiradi.¹⁷

Onomastik birlik tushunchasiga A.M. Gurbanov nuqtayi nazaridan yondashilsa, uchta tomon namoyon bo‘ladi: 1) onomastik birlik terminini biror yakka atoqli otni ifodalaydi: Muhabbat (ism), Farg‘ona (toponim), Mushtariy (yulduz) kabi; 2) onomastik birlik nominativ funksional xususiyatiga ko‘ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar yoki zoonimlar kabi; 3) onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi. Onomastik birliklarni belgilash, ularni tadqiq qilish darajasi milliy tillar tilshunosligida har xil darajadadir.


¹ Gurbanov A. Azerbayjon onomastikasi. Baku. 1986. 34-uy.

Mana shu holatni aniqlash maqsadida ba'zi yirik nomshunos olimlarning, shuningdek,, bir qator onomastikaga bag'ishlangan ilmiy to'plamlarini kuzatdik hamda ulardagi onomastik birliklarni ifoda etuvchi terminlarni belgiladik.

Onomastik makroko'lam superko'lamdan keyin turuvchi yirik bo'linmadir va unda til onomastik tizimining muayyan belgilar asosida uyushuvchi va birlashuvchi hamda onomastik mikro ko'lamni tashkil etuvchi nominativ birliklar mujassamlanadi. Masalan, muayyan atoqli ot tiplari inson tushunchasi bilan aloqador atoqli ot sifatida antroponimiya makroko'lamiga, samoviy (kosmik) obyektlarning nomi sifatida kosmonimiya makro ko'lamiga birlashadi. Mana shunday yirik ko'lamlar milliy til onomastik ko'lamining hajmi va doirasini muayyan butunlik, umumlashma tarzida anglashga yordamlashadi.

Keltirilgan nuqtayi nazardan o'zbek tili onomastik makroko'lam va unga kiruvchi onomastik makroko'lamlarni quyidagicha belgilash mumkin.

O'zbek onomastikasi makroko'lam



Dignitonim
 Poreyonim
 Mifonimiya
 Anemokim
 Stratonim
 Gemeronim



Qatorda berilgan 22 ta onomastik makroko‘lam materiallari o‘zbek nomshunosligida turli darajada o‘rganilgan. Chunonchi, o‘zbek tilidagi toponimlar (ayniqsa, oykonim, gidronimlar), antroponimlar nisbatan qoniqarli o‘rganilgani tufayli ularni ifoda qiluvchi terminlar ma’nosi ma’lum darajada tushunarli.

Ammo tilga olingan makroko‘lamlarga kiruvchi atoqli otlarning aksariyati o‘zbek tilshunosligida hali o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Shu sababli biz BMI ning keyingi faslini o‘zbek tilshunosligi onomastikasining makro ko‘lami antroponimlariga kiruvchi kishi nomlari, ya’ni Boburning ”Boburnoma” asarida keltirilgan Alloh nomi va diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda arabcha va qadimgi yahudiycha ismlarni o‘rganish va ularni leksik-semantik va grammatik tahliliga bag‘ishladik.

2.2. “Boburnoma” da qo‘llanilgan kishi nomlarini ma’no jihatidan tasniflash Alloh sifati bilan bog‘liq bo‘lgan kishi nomlari

O‘zbek tilshunosligida onomastik birlik tushunchasi uch xil xususiyatiga ko‘ra namoyon bo‘ladi:

- 1) onomastik birlik termini biror yakka atoqli otni ifodalaydi;
- 2) onomastik birlik nominativ-funksional xususiyatiga ko‘ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar yoki zoonimlar kabi;
- 3) onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi.

Onomastik birliklarning ba’zi tiplari atoqli ot sifatida ma’lum bo‘lsada, ular deyarli izohlanmagan va tahlil qilinmagan. Atoqli otlar tilning onomastik superko‘lamiga onomastik makroko‘lamlar birligi sifatida kiradi.¹⁸ Onomastik makroko‘lam superko‘lamdan keyin turuvchi yirik bo‘linmadir va unda til onomastik tizimining muayyan belgilari asosida uyushuvchi va birlashuvchi hamda onomastik makroko‘lamini tashkil etuvchi nominativ birliklar mujassamlanadi. Masalan: muayyan atoqli ot sifatida antroponimiya makroko‘lamiga birlashadi.

Shu sababli, biz bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan onomastikaning makroko‘lamiga mansub bo‘lgan atoqli otlar sirasiga kiruvchi tarixiy shaxslarning ismlarini tasniflab, ularni leksik, stilistik va grammatik jihatdan tahlilini amalga oshirishga bag‘ishladik.

Birinchi navbatda Alloh sifatlari bilan, so‘ng esa diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan “Boburnoma”da zikr etilgan tarixiy shaxslarning nomlarini leksik, stilistik va grammatik tahlilini amalga oshirishni o‘z oldimizg maqsad qilib qo‘ydik.

“Qur’onda Alloh ismlari haqida shunday deyiladi: Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas, uni o‘sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar), uning ismlarida haqdan

¹ Begmatov E. Abloqulova Ya. O‘zbek tili onomastikasining makroko‘lami. O‘zbek tili va adabiyoti. 2007. 35-36-bet.

ogʻib(nooʻrin joylarda ularni qoʻllaydigan (mushrik) kimsalarni tark qilinglar” (Aʼrof” surasi, 180-oyat): “Alloh, deb yoki Rahmon-Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, ul zotning goʻzal ismlari bordir” (Al-isro surasi, 110-oyat). Bu ismlar -99 ta, ular musulmon ilohiyotida muhim oʻrin tutadi. Alloh ismlari koʻp duolarda qoʻshib aytiladi”.¹⁹

“Qur’oni Karimning “Hashr” surasida (22-24-oyatlar) “Alloh goʻzal ismlari”ning qisqa roʻyxati bor: ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddua, as-Salom, al-Moʻmin, al-Muhaymin, al-Aziz, al-Jabbor, al-Mutakkabir, al-Holiq, al-Bori, al-Musavvir. Boshqa hamma ismlar qur’onning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bogʻlangan feʼllardan hosil boʻlgan. 99 ta ism roʻyxati Abu Hurayra (601-679) rivoyat qilgan hadisda bor Anashu hadisga koʻra. Muhammad (s.a.v.) 99ta raqamini keltirganlar va har kim Alloh taoloning mazkur ismlarini birma-bir aytib chiqsa, albatta jannatdan joy ato qilinadi, deganlar. Boshqa hadis toʻplamlarida ham Alloh ismlari roʻyxati keltiriladi.²⁰

Shunday ekan, biz ham “Boburnoma”da qayd etib oʻtilgan Alloh sifatleri bilan, hamda diniy tushunchalar bilan bogʻliq boʻlgan tarixiy shaxslarning ismlarini alohida guruhlariga boʻlib ularni etimologik kelib chiqishi arabcha izofa koʻrsatkichi vositasida aniqlovchi aniqlanmish shaklida soʻz birikmasida hosil qilishi va ularning oʻzbek tilida ifodalaydigan leksik va grammatik maʼnolarini oʻzbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlilini amalga oshirishni birinchi rejaga qoʻydik.

“Boburnoma”da Alloh sifatleri bilan bogʻliq boʻlgan “Abdulatif” soʻz birikmasi tarixiy shaxs ismi sifatida ikki marta tilga olinadi: “Andijon va Axsini, Shayboniyoʻn olgʻonda Yodgorsulton begim Hamza Sultonning Abdulatif Sulton otligʻ oʻgʻligʻa tushub edi (B.N:12). “Shohruh mirzo jami Movorounnahr viloyatini ulugʻ oʻgli Ulugʻbek mirzoga berib edi. Ulugʻbek Mirzodan oʻgʻli Abdulatif mirzo oldi(B.N:48).

¹Bekmurodov N. “Chiroyli ismlar toʻplami” T:, yangi avlod 2010. 20-bet.

²Bekmurodov N. Chiroyli ismlar toʻplami. T:, 2010. 20-bet.

Yuqorida asardan keltirilgan parchalardan ko‘rinib turibdiki, Alloh sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan kishi ismlaridan “Abdulatif”ga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunday tarixiy shaxslar nomi “Boburnoma”ning bir necha joyida uchraydi. Ushbu so‘z mustaqil ma’noga ega bo‘lgan ikkita leksemadan tashkil topgan bo‘lib, ”abdu” va “latif” so‘zlaridir. Abu so‘zi arabcha bo‘lib ”gul” so‘zi orqali tarjima qilinadi. “Latif” leksemasi ham arabcha bo‘lib, bu xudoning ism(sifat)laridan biri sanaladi va o‘zbek tiliga marhamatli, iltifotli, muloyim, mehribon kabi so‘zlar orqali tarjima qilinadi. Demak, “abdu” so‘z turkum jihatidan ot va “latif” so‘zi esa sifatdir;. Har ikkala leksema bir biri bilan arab izofasi yordamida birikib “abdulatif” shaklidagi so‘z birikmasini hosil qilinadi. Mazkur so‘z birikmasidan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida avval aniqlovchi kelsa, so‘ng aniqlanmish keladi. Arab tilida esa o‘zbek tiliga nisbatan teskari bo‘lib, avval aniqlanmish, so‘ng aniqlovchi keladi. Ko‘proq o‘zbek tilidagi qaratqichli aniqlovchilarga mos keladi.”²¹ Shuning uchun mazkur “Abdulatif” so‘z birikmasida “abdsu-qul” so‘zi oldin “latif-mehribon” so‘zi esa keyin kelgan. Har ikkala so‘zni “ul” arabcha aniqlik artikili (izofa ko‘rsatkichi) bog‘lab kelgan. Ushbu so‘z birikmasining ana shunday jihatlarini e’tiborga oladigan bo‘lsak. “Latif-mehribon” so‘zi Allohning sifatlaridan biri sanaladi, bunga “abdu” so‘zi qo‘shilib Allohning sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan kishi nomini ifodalaydi.

Mazkur asarda yana Abdulaziz kabi tarixiy shaxs haqida ham ma’lumot berilgan: “Burunroq Yunushonning egachisini Ulug‘bek Mirzo Abdulaziz Mirzoga olib edi” .

“Abdulaziz” ismi ham xuddi “Abdulatif” kabi ikki leksemaga ajraladi. “Abdu” va “laziz”, yuqorida zikr etib o‘tganimizdek, “abdu” so‘zi ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib “qul”degan ma’noni ifodalasa, “laziz” so‘zi esa so‘z turkum jihatidan sifat bo‘lib, “yoqimli, havas qilarli, hurmatli” kabi xudoning ismlaridan biri sanaladi. Har ikkala komponent izofa ko‘rsatkichi vositasida birikib arab tilida moslashgan aniqlovchili so‘z birikmasini hosil qilgan va o‘zbek tiliga ”hurmatlining quli” so‘z birikmasi leksik ma’nosida tarjima qilinadi.

¹Nashrga tayyorlovchi Shamsiyev “Boburnoma” T.; 1989. 12-48-betlar.

Bundan tashqari “Abdullo yoki Abdulla” ismli tarixiy shaxslar haqida ham ma’lumot berilgan. Ushbu shakldagi ism “Boburnoma”ning besh joyida keltiriladi. Mazkur ismning aytilishidan xudo sifatleri bilan bog‘liq ekanligi ko‘rinib turibdi: “Besh-olti oydan so‘ng Ibrohim Mirzo o‘lub o‘g‘li Abdullo mirzo ning yeriga o‘ltirdi”. “Qosim Sultondin so‘ng Bo‘ron Sulton otliq uruqlaridan oldi, andin bir o‘g‘il bor: Abdullo Sulton otliq, bu tarixta mening mulozamatimdir” (B.N. 151)

Abdullo so‘zi ham arabcha bo‘lib, arab tilida “Abdulloh” deb talaffuz qilinadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida biroz fonetik o‘zgarishga yuz tutib “Abdulla” kabi talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. “Boburnoma”da ham Abdullo kabi yozilgan. Mazkur ismda ham “abdu”- “qul” ot so‘z turkumiga xudoning sifatlaridan birinchisi bo‘lmish “Alloh” so‘zining birikishi orqali hosil qilingan so‘z birikmasidir. “Alloh” so‘zi arabcha bo‘lib asosan “yaratuvchi”, ya’ni “Iloh” ma’nosini ifodalaydi. Ikkala komponent bir-biri bilan aniqlovchi-aniquqlanmish shaklida birikib “yaratuvchining quli”, ma’nolarni ifodalaydi. “Abdulla” kabi ismlar hozirgi kunda ham kishi nomi sifatida ko‘plab insonlarga qo‘yilmoqda.

Shu bilan birgalikda, ushbu asarning uch joyida Abulvahhob ismli kishilar xususida qisqacha ma’lumot beriladi: “Samarqandin o‘n sakkiz yig‘och sharq jonibidur, Sulton Abusaid mirzo Bobo Hokiya erdikim, Hiriya o‘n ikki yig‘och sharq saridur, bu xabarni Abulvahhob shig‘ovuldin arzadosht qilib, Mirzog‘a chopturdilar” (B.N. 15) “Xo‘jand ichida Alisher mo‘g‘ulning otasi Abulvahhob ishig‘ovul erdi, (B.N. 31). “Yana Sahyx Purondek vali aziz kishini mo‘gul Abulvahhobg‘a tutturdi, bir o‘g‘lini yana bir kishiga tutturdi”. Asardan keltirilgan ushbu iqtiboslarda “Abulvahhob” kabi tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan. Abulvahhob” arabcha qaratqich aniqlovchili so‘z birikmasi sanaladi. Yuqorida keltirilgan ismlar kabi mazkur ism ham xudoning sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan ismlar qatoriga qo‘shiladi. Chunki mazkur so‘z birikmasi tarkibidagi “Vahhob” so‘zi o‘zbek tiliga “marhamatli, beminnat” kabi so‘zlar ifodalaydigan ma’noda tarjima qilinadi. Shunday ekan, kishi nomi bo‘lib kelgan “Abulvahhob”

soʻzi ot sifat tarzida birikib “marhamatlining quli” soʻz birikmasi ifodalagan maʼnoda ishlatiladi.

Jumaladan “Boburnoma”da hozirgi kunda ham uchraydigan “Abduali” ismi ham tilga olinadi: “Shayboniyxonning muncha taraqqiy topmogʻiga va muncha qadam xonavodalar buzulmogʻiga Abduali tarxon sabab boʻldi” (B.N22) yana bir Boqi tarxon edi. Abduali tarxonning oʻgʻli va Sulton Ahmad Mirzoning amaki zodasi edi’ (B.N.:23).²²

Asardan keltirilgan jummalarda “Abduali” nomli kishi ismi taʼkidlab oʻtilgan. Bu soʻzni ham leksik jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak “ali” soʻzi arabcha boʻlib, arab tilida “aliy” deb talaffuz etiladi. Oʻzbek tiliga “ali” shaklida qabul qilingan. Mazkur soʻz maʼno jihatidan oʻzbek tiliga “ulugʻ martabali, buyuk Alloh, oliy darajali zot” kabi soʻz va soʻz birikmalari orqali tarjima qilinadi. “Abdu” soʻzi bilan birikib kelganda qaratqich aniqovchili soʻz birikmasi shaklida kelib “oliy darajali zotning quli” leksik maʼnosini ifodalaydi. Bunday ismlar asosan arab tiliga xos boʻlib, oʻzbek tiliga ham oʻzlashib kirib kelgan. Hozirgi kunda ham uchrab turadi.

“Boburnoma”da yuqorida keltirilgan Alloh sifatlari bilan bogʻliq boʻlgan ismlardan tashqari yana shunga oʻxshash “Ubaydullo” kabi ismlar ham asarning uch joyida keltirib oʻtiladi. “Hazrati Xoja Ubaydulloning mutaaliqlarigʻakim, burun harj va tahlillarda koʻp faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddin xalos boʻlurlar edi, ne joy ulkim, alargʻa mundoq takliflar boʻlgʻay, koʻp taaddi va tashaddud qila boshladi” (B.N.:24).

“Hazrati Hoja Ubaydulloning avlodining orasida bu sababdin taassub tushti” (B.N.:7) Ushbu jummalarda “Ubaydullo” kabi shaxs ismi keltirilgan. Bu ism asli arabcha boʻlib, arab tilida “Uyabdullo” deb talaffuz qilinadi. Oʻzbek tiliga “Ubaydullo yoki Ubaydulla” tarzida oʻzlashgan. Bu ism ham “ubay” va “Alloh” kabi soʻzlarning birikuvidan hosil qilingan. “Ubay” soʻzi qadimgi arabcha soʻzlaridan boʻlib, uyatchan, hayoli kabi maʼnolarni ifodalaydi. “Alloh” esa xudoning ismidir. Har ikkala soʻz birikib “Ubaydullo” soʻz birikmasini hosil

¹ Oʻsha asar. 22-23-betlar.

qilgan va bu soʻz birikmasi oʻzbek tilida “Allohning hayoli bandasi” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Ayrim manbalarda ushbu ismni “Abdulloh”ning arabcha kichraytirma shakli ham deb, taʼkidlab oʻtilgan.

Asarda “Abdulquddus” ismli tarixiy shaxslar haqida ham maʼlumot beriladi: “Shayx Jamolni Abdulquddus oʻltirganidan soʻng Toshkand va Shohruhiya va Sayramni olib edi, kecha mahal tasarrufida edi” “Mailga Sulton Mahmud mirzodan Abdulquddusbek otliq elchi keldi” “Abdulquddus kuhbur Kashtabekning oʻgasi fasil tubigʻa chiqib edi, fasildin andoq tosh urdularkim, hech yerga tegmay durust muallaq oshib”

Mazkur asardan keltirilgan jummalarda “Abdulquddus” kishi ismi keltirilgan. Mazkur ism ham boshqa “abdu” bilan yasalgan ismlarga monand soʻz birikmasi shaklida, yaʼni, ot+sifat birkuvidan hosil qilingan. Bu soʻz birikmasidagi “quddus” soʻzi oʻzbek tilidagi pok, pokiza, begunoh, muqaddas, aziz ilohiy kabi sifatlar ifodalagan maʼnoga mos keladi. Shunday ekan, “Abdulquddus” soʻzi soʻz birikma holatida leksik jihatdan oʻzbek tiliga “muqaddasning quli” maʼnosida tarjima qilinadi. Ayrim manbalarda “quddus” soʻzi xudoning sifatlarini ifodalovchi soʻzlarga qoʻshilmagan.”²³

“Boburnoma”da xudoning ismlari bilan bogʻliq boʻlgan ismlardan “Abdulkarim” ham uchraydi: “yana bir Abdulkarim ashrit edi, uygʻur edi. Sulton Ahmad mirzo qoshida eshik ogʻa edi”. “Abdulkarim” soʻzi ham ikki leksik maʼnoga ega boʻlgan. Soʻzlarning birkuvidan hosil qilingan arabcha aniqlovchi aniqlanmishli soʻz birikmasidir “Karim” oʻzi xudoning ismlaridan biri boʻlib oʻzbek tiliga sahovatli karamo keng, kechirimli kabi soʻzlar orqali tarjima qilinadi. “Abdulkarim” soʻzi oʻzbek tiliga toʻliq holatda “kechirimli (zot) ning quli”, deb tarjima qilinadi. Yana “Abdulkarim” ga oʻxshash xudoning sifatleri bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab tarixiy shaxs nomlari asarda Bobur tomonidan tilga olinib oʻtilgan: “Motrudeya Shayx Abdumansurga mansubdir (B.N.:44) “Xoji Asadula Zarofate qildi, dedikim: “Govguli shavad, chikor kunsim” (B.N.:46). “Ul fursatga Piskent Mulla Haydarning oʻgʻli Abdulmannonda edi” “Oʻgʻli Abdushukur andin beri

¹ Bekmurodov N. Chiroyli ismlar toʻplami. T.: 2010. 250-bet.

Jahongir Mirzo mulozamatida bo‘ldi” (B.N.:48) ”Ul jumladin, insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyg‘a taqlid qilib tom qilibtur. “yana Abdulxoliqbek edi, Firuzshoh bekkim. Shohruh mirzoning ulug‘ rivoyat qilg‘on begi edi”. “yana Mullo Abdulg‘afur Loriy edi”

Yuqoridagi jumalarda keltirilgan Allohning sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan ismlar asarda bir necha bor keltirilib, ta’kidlab o‘tilgan.

Birinchi iqtibosda “Abdumansur” ismi keltirilgan. Bu ism ham boshqa ismlar singari “abdu” so‘ziga xudoning sifatlaridan birini qaratqich aniqlovchi sifatida keltirish orqali yasalgan. “Mansur” so‘zi “ustun, g‘olib chiquvchi”, kabi ma’nolarni ifodalaydi va “Abdumansur” so‘zi o‘zbek tiliga ”golibning quli” so‘z birikmasi shaklida tarjima qilinadi.

Keyingi jumlada “Asadullo” so‘z birikmasi shaklida ism uchraydi. ”Asad” so‘zi leksik jihatdan o‘zbek tiliga “sher” deb tarjima qilinadi. Asad so‘zining semantik ma’nolari ham bor. Bular: qo‘rqmas; dovyurak, jasur, kabilardir. Asadulloh so‘z birikmasi “Allohning sheri, Allohning jasur bandasi yoki ollohning dovyurak bandasi” kabi so‘z birikmalari ifodalagan ma’nolarini bildiradi.

Navbatdagi gapda “Abdullmannon” shaklidagi shaxsning ismi aytib o‘tiladi. Ushbu ism ham “abu” va “mannon” so‘zlarining so‘z birikmasi shaklida birikuvi orqali yasalgan ismdir. “Mannon” so‘zi ham xudoning sifatlaridan biri bo‘lib, mehru marhamatli, sahiy, kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mazkur so‘z birikmasi “mehru marhamatlini quli” so‘z birikmasi ifodalaydigan leksik ma’noda o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

Keyingi gapda “Abdushukur: ismi uchraydi. Bu so‘z birikmasidagi “shukur” so‘zi o‘zbek tiliga “rizq beruvchi, ulush beruvchi” kabi so‘zlar ifodalangan ma’noda tarjima qilinadi va “Abdushukur” so‘z birikmasi to‘liqligicha o‘zbek tiliga “rizq beruvchining quli” kabi so‘z birikmasi ma’nosida tarjima qilinadi.

Navbatdagi iqtibosda ”Abdurahmon” nomli tarixiy shaxs haqida ma’lumot beriladi. ”Abdurahmon” arabcha so‘z birikmasi ham boshqa so‘z birikmalari kabi

“abdu” va “rahmon” leksemalariga bo‘linadi. Bu so‘z birikmasidagi ”rahmon” so‘zi “marhamat etuvchi, rizq beruvchi, rahmdil” kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z turkum jihatidan sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zdir.

Har ikkala komponent birlashib “marhamat etuvchining, rahmdilning, marhamatlining quli” ma’nosini ifodalovchi kishi ismini hosil qilgan.

Keyingi iqtibosda “Abdulxoliq” kishi ismi tilga olinadi. “Abdulxoliq” aniqlovchili so‘z birikmasidir. Bu so‘z birikmasi ham arabcha izofa ko‘rsatkichi vositasida birikkan so‘zlar Allohning sifatlaridan biri hisoblanadi. Bunday shaklda yasalgan barcha arabcha ismlar o‘zbek va fors tillariga kirib kelgan. Abduholiq so‘z birikmasidagi qaratqich aniqlovchi “holiq” so‘zi ”yaratuvchi”, so‘z turkum jihatidan yasama otdir. Bu so‘z “abdu” so‘ziga qo‘shilib qaratqich aniqlovchili so‘z birikmasini hosil qiladi va “yaratuvchining quli” degan ma’noni ifodalaydi.

So‘nggi shu iqtibosda “Abdug‘afur” ismli tarixiy shaxsning nomi tilga olinadi. Bu ism ham yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek arabcha “abdu” va “g‘afur” so‘zlarining qaratqich aniqlovchili so‘z birikma shaklida birikuvi orqali hosil qilingan kishi ismidir. Bu ismdagi “g‘afur” leksemasi so‘z turkum jihatidan yasama ot bo‘lib, o‘zbek tilida “avf etuvchi, kechiruvchi” degan ma’noni ifodalaydi. To‘liqligicha “Abdug‘afur so‘z birikmasi “kechiruvchining quli” so‘z birikmasi ma’nosida o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

Bundan tashqari Alloh sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina ismlar asarda uchraydiki, ular arabcha izofasiz qo‘llanilgan ular xudoning sifatlarini inson ismiga qo‘yish natijasida yasalgan otlardir. Masalan: “Bu tog‘ning qullashida Sulton Mahmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroq ushbu tog‘ning tumshug‘ida tarix to‘qqiz yuz ikkida men bir ayvonliq hujra soldim”(B.N.:50). “Shohruhiyani olg‘on mahalda, ushbu Sux bila Hushyor ko‘kpoyalariga kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o‘sh karib, Kobul azimat qildim”. “Muhammad Husayn

Ko‘ragon dug‘latka berib edilar, bir qizi, bir o‘g‘li bo‘lub edi. Chun Sulton Ahmad mirzo murojaat qildi, ikki-uch manzildin so‘ng mijozi etidol nahajidin munharif bo‘lub, muhrik isitma tori bo‘ldi”.(B.N.: 29)

Iqtibosning birinchi gapida Abdulhol “Mahmud”xon ismli tarixiy shaxsning oti keltirib o‘tiladi. “Mahmud” so‘zi arabcha “hamd” so‘zidan yasalgan bo‘lib, “maqtalgan”, maqtovga sazovor, dongdor”, kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu so‘z xudoga nisbatan ishlatish bilan barobar, Muhammad payg‘ambarning ham sifatlaridan biri hisoblanadi. Keyingi jumlada shunga o‘xshash bo‘lgan “Muhammad” so‘zi kishi ismi sifatida keltirilgan. Bu so‘z ham xuddi ”mahmud” kabi “hamd” so‘zidan xususan yasalgan bo‘lib, ”maqtovga va olqishlarga sazovor kabi ma’nolarni ifodlaydi. Mazkur ism ham xudoning sifatlaridan birini ifodalash bilan birga, Muhammad payg‘ambarning sifatlaridan biri hisoblanadi.

Navbatdagi asardan keltirilgan gapda “Ahmad” ismli kishi nomi sifatida keltiriladi. Bu ham “Mahmud, Muhammad” ismlari kabi arabcha “hamd” so‘zi o‘zagidan yasalgan bo‘lib, Mahmud, Muhammad so‘zlari ifodalagan ma’noni, aynan anglatadi va unga qo‘shimcha ravishda xudoga eng ko‘p hamdu sanolar aytuvchi kishi kabi semantik ma’noni ham ifodalaydi.

Hammamizga ma’lumki, musulmonlarda Muhammad, Ahmad, Mahmud kabi ismlar farzandlarga ot sifatida juda ko‘p qo‘yiladi. Boburning “Boburnoma” asarida ham bunday ismlar ko‘plab uchraydi. Ularning soni qariyb 100 dan ortiqni tashkil etadi. Misol tariqasida ulardan ayrimlarini keltiramiz: Sayid Muhammad, Darvesh Muhammad, Sulton Ahmad, Mahmudxon, Ahmad Hojibek, Muhammad Mazid, Muhammad Bug‘do, Malik Muhammad, Muhammad Boqar, Ahmad Mushtoq, Muhammad Xusayn, Shoh Sulton Muhammad, Muhammad Miskin, Toxir Muhammad kabilar.

Boburning “Boburnoma” asarida yana shunga o‘xshash xudoning sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina kishilarning nomlari uchraydi:

“Umarosi”Jonibek do‘ldoy edi. Sulton Malik Qoshg‘ariyning inisi edi. Boysung‘ur mirzo Sulton Ali mirzo bilan Buxoroda urushub mag‘lub bo‘lg‘onda ilikka tushti.(B.N.:30) “Valibek va Zunnun arg‘unni Hisravshoh ustiga ilg‘or yuborildi”(B.N.:36). “Ishqullo yetti-sakkiz kishidan ilgarraq ayrolur”(B.N.:112).

Iqtibos sifatida asardan keltirilgan gaplarning birinchisida. Sulton Malik ismli tarixiy shaxs haqida ma’lumot beriladi. Bu ism so‘z turkum jihatidan ikkita otdan,

ya'ni ot+ot shaklida yasalgan. Mazkur ismdagi "Sulton" so'zi arabcha bo'lib "shoh", hukmdor kabi ma'nolarni, anglatadi. Ismning ikkinchi bo'lagi "Malik" so'zi esa Allohning sifatlaridan biri bo'lib "butun dunyoning hukmdori degan ma'noni ifodalaydi. Har ikkala so'z berik "Sulton Malik" holatida butun dunyoning podshohi kabi tushunchani anglatadi.

Keyingi gapda "Sulton Ali" so'z birikmasi kishining ismi sifatida keltirilgan. Bu ism ham ikki mustaqil ma'noni ifodalovchi so'zlarning brikuvidan hosil qilingan "sulton" so'zining leksik ma'nosi bizga ma'lum "ali" so'zi esa yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek xudoning sifatlaridan biri bo'lib, arab tilida "oliy" deb talaffuz etiladi va o'zbek tilida "ulug' martabali, buyuk, oliy darajali" kabi ma'nolarda tarjima qilinadi. Sulton Ali so'zlari esa ot+sifat shaklida birlashib "buyuk podshoh" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Navbatdagi iqtibosda "Valibek" ismi keltirilgan. Bu so'z yakka "Vali" tarzida kishilarga ism sifatida qo'yilishi tavsiya etilmaydi. Ko'proq Abduvali shaklida uchraydi. Abduvali shaklida qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki "abdu" qul, "vali" esa Allohning sifati bo'lib "butun koinotni nazorat qiluvchi, boshqaruvchi" kabi ma'nolarni anglatadi. "Abduvali" shaklida butun koinotni nazorat qiluvchining quli kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Keyingi gapda esa "Ishqullo" ismi keltirilgan. Bu so'z ham ikki so'zdan ya'ni, ikkita ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zning arabcha izofa ko'rsatkichi vositasida birikib so'z birikmasi hosil qilishi natijasida yasalgan kishi ismidir. "Ishqullo" so'zi arab tilida "ishqulloh" deb talaffuz etiladi va o'zbek tiliga Allohning ishq ma'nosida tarjima qilinadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, arab tili so'z birikmalari o'zbek tili so'z birikmalariga teskari bo'lib, arab tilida avval aniqlanmish, so'ng aniqlovchi keladi. Shu sababli, o'zbek tiliga teskari tarjima qilinadi. Chunki, o'zbek tili so'z birikmalarida avval aniqlovchi, so'ng aniqlanmish keladi.

Jumladan asarda "Malik Qosim" kabi Allohning sifati bilan bog'liq bo'lgan ism ham uchraydi. Malik Qosim ismi ikki mustaqil ma'noga ega bo'lgan "malik" va "qosim" so'zlarining bir-biri bilan arabcha moslashmagan aniqlovchili so'z

birikmasi shaklida hosil qilingan kishi nomini ifodalovchi ismdir. Demak, yuqorida zikr etib o'tganimizdek, "malik" borliqning hukmdori", "qosim" so'zi esa, bu ham xudoning ismlaridan biri sanalib, taqsimlovchi, insonning qismatini belgilovchi kabi ma'nolarga ega. Har ikkala so'z birikuvi, so'z birikmasi shaklida (Malikqosim) "insonning qismatini belgilovchining hukmdori" ma'nosini ifodalaydi. Bunday ism "Boburnoma"ning bir joyida bir tarixiy shaxsning ismi sifatida uchraydi: "Malik Qosim Bobo Qoshqani og'a inisi bila yuz-yuz ellik kishi o'z og'a-inisi bila ildam-o'q yurib, nomozi peshinida sanbalg'a yetarti" (N.B.:158).

Biz bitiruv malakaviy ishimizning ushbu faslida onomastikaning bir turi bo'lmish kishi ismlari sirasiga mansub, xudoning sifatlari bilan bog'liq bo'lgan Boburning "Boburnoma" asarida nomlari tilga olingan tarixiy shaxslarning ismlarini leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirdik. Diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan kishi nomlari Alloh ismlari bilan bog'liq bo'lgan kishi nomlaridan tashqari diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan tarixiy shaxslarning ismlari uchraydi. Biz mazkur tadqiqotimizning ushbu bo'limini "Boburnoma"da diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan kishi ismlarini ma'no va grammatik jihatidan tahlil etishga bag'ishladik. Diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar xuddi Alloh sifatlari bilan bog'liq bo'lgan ismlar kabi ikki va udan ortiq so'zning arabcha izofa ko'rsatkichi vositasida birikishi orqali yasaladi. Diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan aksariyat ismlar aniqlovchi aniqlanmishli so'z birikmasi shaklida bo'ladi. Masalan: "Sahyx Muslhiddin va Hoja Kamol Xo'jand tomdurlar" (B.N.:32). "Nechukkim, Asiriddin shoirmi Asiriddin Axsikantiy derlar". Yunushonning opasi rivoyat qilg'on Sahyx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'lur" (B.N.:69) "Sulton Ahmad qozining o'g'li va Sahyx Burxoniddin Qilichning naslidur, ona tarafidin sulton Ilik Moziyg'a yetar"... (B.N.:131).

"Boburnoma"dan keltirilgan gaplarda "Asiriddin" ismi uchraydi. Asiriddin so'z birikmasi ikkiga bo'linadi. Birinchi bo'lagi "Asir" va ikkinchi bo'lagi "din" so'zidir. "Asir" so'zi ham "din" so'zi ham arabcha so'z bo'lib, har ikkalasi so'z,

soʻz turkum jihatdan otdir. Bu soʻz arab tilida “asir al-din” shaklida yoziladi va “din” soʻzining “d” tovushi aniqlik artikilining “l” tovushini assimilatziyaga uchrab “d” tarzida talaffuz qilishga undaydi va “asiriddin” tarzida oqʻiladi. “Asir” soʻzi oʻzbek tiliga boʻysunuvchi, sigʻinuvchi va “din” soʻzi “din” tarzida tarjima qilinadi. Toʻliq soʻz birikma shaklida “dinga boʻysunuvchi” maʼnosida tarjima qilinadi.

Asardan keltirilgan iqtibosning birinchisida, Muslihiddin kabi tarixiy shaxsnig ismi qayd etilgan. Bu ism ham xuddi “Asriddin” kabi yasalib “muslih” va “din” kabi soʻzlarga ajraladi, chunki mazkur moslashgan aniqlovchili soʻz birikmasi hisoblanadi va arab tilida “muslih aldin” kabi yozilib, yuqorida taʼkidlab oʻtilganimizdek, assimilatziya natijasida “al” aniqlik artikili “id” kabi talaffuz etiladi. Arabcha “muslih” soʻzi isloh qiluvchi, tuzatuvchi, yangilovchi” soʻzlari orqali oʻzbek tiliga tarjima qilinadi. “Muslihiddin” soʻz birikmasi toʻliqligicha oʻzbek tiliga “dinni tuzuvchi, isloh qiluvchi, yangilovchi” soʻz birikmalari ifodalaydigan leksik maʼnoda tarjima qilinadi. Keyingi jumlada diniy tushuncha bilan bogʻliq boʻlgan ismlardan “Nuriddin” keltirilgan. Oʻz-oʻzidan bizga maʼlumki, “nur” soʻzi arabcha boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham mazkur oʻzlashma soʻz xuddi oʻzbek soʻzlari kabi faol qoʻllaniladi. Mazkur soʻz arab adabiy tilida qanday maʼnoda qoʻllanilsa, hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham oʻsha leskik maʼnoni ifodalaydi. “Nuriddin” arabcha soʻz birikmasi oʻzbek tiliga soʻz birikmasidagi soʻzlarning oʻrnini almashtirish orqali tarjima qilinadi, yaʼni yuqorida aytib oʻtganimizdek, oʻzbek adabiy tilida avval aniqlovchi, soʻng aniqlanmish keladi. Buni biz “Nuriddin” soʻz birikmasining tarjimasidan ham anglab olishimiz mumkin. “Nuriddin”soʻzi aynan, oʻzbek tiliga “dinning nuri” qaratqichli aniqlovchili soʻz birikmasi shaklida oʻgiriladi.

Navbatdagi “Boburnoma”dan misol tarzida keltirilgan gapda “Burxoniddin” kishi nomi qayd etib oʻtilgan. Bu ism ham boshqa ismlar singari ikkiga “burxon” va “din” kabi boʻlaklarga boʻlinadi, chunki bu soʻz ham arabcha qaratqich aniqlovchili moslashgan soʻz birikmasi hisoblanadi. Mazkur soʻz birikmasi yuqorida koʻrsatilib oʻtilgan soʻz birikmalariga monand holatda ot+ot shaklida

hosil qilingan. “Burxon” so‘zi arab tilida yasama ot bo‘lib “asrovchi, himoyalov, qo‘riqchi” kabi o‘zbek tilidagi yasama otlar ifodalaydigan leksik ma’noda tarjima qilinadi.

Arabcha “din” qo‘shimchasi va vositasida yasalgan ismli tarixiy shaxslar haqida Bobur o‘z asarida juda ko‘p ma’lumotlar beradi. Bunday ismli shaxslar 30 nafardan ziyodini tashkil etadi. Masalan: “Sulton Shahobiddin G‘uriyning ham poytaxti bu ekandur. Bu Sulton Shahobiddinning Tabaqoti Nosiriyda va ba’zi Hind tarixida Mumziddin bitibturlar (B.N.:145). “Yana Jamoliddin Husayn G‘ozurgohiy edi, agarchi sufi emas edi. Mutasavvuf edi”. “Ul fursatta Majiddin Muhammad parvonachi edi “yana mir Jamoliddin Muhaddiz edi. Hadis ismini Xurosonda oncha bilur kishi yo‘q edi”(B.N:270).

Mazkur “Boburnoma”dan keltirilgan iqtiboslarning birinchisida kishi ismi sifatida “Shahobiddin” so‘zi keltirilgan. “Shahobiddin” so‘zi ham boshqa ismlar qatori ikki ma’noli leksemaga ajraladi. “Shahob” va “din”. Bu ikki leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan birinchisi ”shahob” so‘zi bo‘lib, bu so‘z o‘zbek tilida ”nurli, yorug‘ yulduz, yog‘du sochuvchi yoki to‘q qizil” ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur so‘z, ya’ni ”shahob” so‘zi so‘z turkum jihatidan ayrim hollarda ot, ayrim hollarda semantik ma’noda kelganda sifat ham bo‘lib kelishi mumkin. Shahobiddin so‘zida ham izofa ko‘rsatkichi yordamida birikkan moslashgan aniqlovchili so‘z birikmasi hisoblanadi. Arab tilida bu so‘z ”shahob al-din” tarzida yozilib, o‘qilishida assimillatsiya hodisasi tufayli, “al” aniqlik artikilining ”l” tovushi “d” kabi talaffuz etilishi natijasida “shahobiddin” tarzida o‘qiladi. “Shahobiddin” so‘zi leksik jihatidan o‘zbek tiliga “dinning yog‘du sochuvchi yulduzi yoki dinning qizil nur taratuvchisi kabi ma’nolarda tarjima qilinadi. Iqtibos sifatida keltirilgan gaplarning ikkinchisida tarixiy shaxs ismi sifatida Kamoliddin so‘zi yozilgan. Kamoliddin so‘z birikmasi ham ”Shahobiddin” kabi ikki so‘zning arabcha izofa ko‘rsatkichi yordamida birikkan qaratqich aniqlovchili so‘z birikmasi bo‘lib, bu so‘z birikmasi boshqa shunga o‘xshash ismlar singari “Kamol” va “din” so‘zlarining aniqlik artikili yordamida birikkan moslashgan aniqlovchili so‘z birikmasi hamdir. “Kamol” so‘zi arabcha bo‘lib,

o'zbek tilida "yetuk, mukammal, nuqsonsiz, kabi ma'noni ifodalab so'z turkum jihatidan sifatlar ifodalagan leksik ma'noni anglatadi va "Kamoliddin" so'zi to'liqligicha "dinning ravnaqi, dinning kamoloti, yoki dinning yetuk farzandi" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Keyingi jumlada kishi nomlaridan "Majididdin" so'zi uchraydi. Bu ism ham diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar qatoriga kiradi. Majididdin" so'zi ham ikki mustaqil ma'noni ifodalovchi so'zlardan hosil qilingan kishi nomlaridan biridir.

Bu ikki so'zdan birinchisi "Majid" bo'lib, arab tilidan o'zbek tiliga "muruvvatli, atoqli, dongdor, shuhratli" kabi ma'noni ifodalovchi yasama sifatlar ma'nosi orqali tarjima qilinadi. Majid so'zi ayrim manbalarda Allohning sifatini ifodalovchi so'zlar sirasiga kiritiladi.²⁴ "Majididdin" so'zi to'liqligicha "dinning atoqli, shuhratli dongdor kishisi" so'z birikmalari ifodalaydigan ma'nolarda o'zbek tiliga tarjima qilish mumkin.

So'nggi ikki jumlada "Sayfiddin" va "Jamoliddin" kabi kishi nomlarini ko'rishimiz mumkin. Bu ikkala so'z ham yuqorida keltirilgan "din" vositasidan yasalgan ismlar kabi ikki mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlardan yasalgani ko'rinib turibdi. "Sayfiddin" so'zidagi "Sayfi" leksemasi so'z turkum jihatidan ham sifat, ham ot kabi grammatik ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Bu so'z o'zbek tilida "tanlangan, saylab olingan yoki qilich, shamshir" kabi ma'nolarni ifodalaydi. "Sayfiddin" esa "Dinning qilichi yoki dinning kuch-qudrati" kabi so'z birikmalari ifodalaydigan leksik ma'nosi o'zbek tiliga tarjima qilinishi mumkin.

Jamoliddin so'zi o'z-o'zidan ma'lumki, jamol va din so'zining izofa orqali moslashgan holatda so'z birikmasi hosil qilishi natijasida yasalgan, kishi ismlaridan biri hisoblanadi. "Jamol" so'zi ham arabcha bo'lib "chiroy, ko'rk" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu ot+ot shaklidagi qaratqich aniqlovchili so'z birikmasidir. Jamoliddin so'zi o'zbek tiliga "dinning chiroyi, dinning ko'rki" kabi so'z birikmalari ma'nosida tarjima qilinadi. Ushbu asarda "din" vositasida

¹Bekmurodov N. Chiroyli ismlar to'plami. T.; 117-bet.

yasalgan ismlar bilan nomlangan tarixiy shaxslar 30 dan oshiqni tashkil etadi. Bizlar bunday ismlarning ayrimlarini ajratib olib leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirdik.

Arabcha kishi nomlari.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Allohning sifatlari bilan va diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan ismlardan tashqari ko‘plab arabcha otli tarixiy shaxslar nomlari va ularning qilgan ishlari xususida ham fikr yuritiladi va baho beriladi.

Shuning uchun biz ilmiy tadqiqotimizning ushbu bo‘limini “Boburnoma” asarida keltirilgan arabcha ism shaxslarning nomlarini leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirishga bag‘ishladik.

Ushbu asarda arabcha erkaklar ismlari bilan bir qatorda ayollarning ham ismlari keltirilgan:

“Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim derlar edi, ikkalasi mirzoning vafotidan so‘ng bo‘ldilar. “Boridin ulug‘ Robia Sultonbegim edi, Qorako‘z begim derlar edi. “ikkinchi qizi Soliha Sultonbegim derlar edi, Oq begim derlar edi”. “Mehir Nigorxonim bilan Qoshg‘arg‘a tushti. Uchinchi qiz Oysha Sultonbegim edi. Boridin kichik qizi Ma’suma Sultonbegim edi. Habiba Sultonbegim edi. Men Xurosong‘a borg‘anda ko‘rub, xushlab, tilab, Kobulg‘a kelturub oldim. Beshinchi qiz Zaynab Sultonbegim edi”.

Asardan keltirilgan iqtiboslarda arabcha ayollar ismlaridan “Ruqiya” keltirilgan. Bu so‘z sof arabcha bo‘lib, ot so‘z turkumiga mansub. Ma’no jihatidan o‘zbek tiliga “sehr, tutmoq” so‘zlari orqali tarjima qilinadi.

Shu bilan birgalikda, mazkur iqtiboslarda “Robiya”, “Soliha”, “Oysha”, “Ma’suma”, “Habiba”, “Zaynab”, “Mahduma” kabi arabcha bo‘lgan ayol kishilar ismlari qayd etilgan. Arab tilida jinslar mavjud. Ayollar jinsiga taaluqli bo‘lgan barcha narsalar shuningdek, ismlar ham ayollar jinsidagi predmetlar nomini hosil qiluvchi-a qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

Shu sababli, har bir ayollar jinsiga mansub bo'lgan predmet, narsa yoki ismlar oxiri –a qo'shimchasiga tugagan bo'ladi. Hozirgi kunda ham ayollarning arabcha ismlari oxiri –a qo'shimchasi bilan yakunlanadi.

Bularni e'tiborga olib, arab tilidagi ayollar (muannas) jinsini hosil qiluvchi qo'shimchalar o'zbek adabiy tiliga o'zlashib, o'zbek tilida jinslik kategoriyasi bo'lmasa ham, jinslikni ifodalab kelmoqda, deb aytishimiz mumkin.

Masalan: Zaif-Zaifa, Feruz-Feruza, Kamol-Kamola, Zarif-Zarifa, Olim-Olima, Shoir-Shoira, Fozil-Fozila kabi. Keyingi iqtibosda keltirilgan "Soliha" so'zining leksik ma'nosiga keladigan bo'lsak, "solih" so'zining ayollar jinsiga mansub leksemasi bo'lib, o'zbek adabiy tiliga leksik jihatdan Pokiza, Ozoda, diyonatli, taqvodor, xudojo'y kabi ma'nolarda tarjima qilinadi. Keyingi gapda "Oysha" so'zi shaxs ismi sifatida qayd etib o'tilgan. "Oysha" so'zi ham arabcha bo'lib o'zbek tiliga yashovchi, barhayot, mustahkam kabi sifat so'z turkumi ifodalagan leksik ma'noni anglatadi.

Asardan keltirilgan parchada arabcha "Ma'suma" ismli ayol kishi nomi ta'kidlab o'tilgan. Ma'suma so'zi so'z turkum jihatidan sifat bo'lib, leksik jihatdan "kamtar, toza, pokiza, tinch kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Keyingi ism "Habiba bo'lib, bu "habib" so'ziga –a ayollar jinsiga mansub so'zlarni hosil qiluvchi qo'shimcha yordamida yasalgan ismdir. Bu ism leksik jihatidan o'zbek adabiy tilidagi "do'st, o'rtoq, sevimli, suyukli" kabi so'zlar ma'nosiga mos keladi.

Navbatdagi ism "Zaynab" bo'lib, bu so'z har ikkala jinsga taaluqli ya'ni har ikki (ayollar va erkaklar) jinsida ham birdek ishlatiladigan so'zlar sirasiga kiradi va o'zbek tilida "kelishgan, go'zal, chiroyli, to'la" kabi so'zlar ma'nosini ifodalaydi.

So'nggi ism "Mahduma"dir. Bu so'z arabcha "mahdum" so'zining ayollar (muzakkar) jinsiga mansub "mahduma" shaklidir. Mazkur shakl "hamd" (maqtov) so'zidan yasalgan bo'lib, asosiy ma'nosi "maqtagan, hamd qilingan, madh qilingan" va semantik ma'nosi esa "janob, aslzoda, din ilmining bilimdoni" kabidir.

Bundan tashqari, arabcha har-xil soʻzlardan yasalgan erkaklar ismlari ham uchraydi: Mirzoxonni Muborakshoh qalam Zafargʻa tilaganda Abubakr Qoshgʻariyning chopqunigʻa yoʻliqdi (B.N.:28).

Ushbu asardan keltirilgan gapda “Abobakr” va “Muborak” kabi kishi ismlari taʼkidlab oʻtilgan. Mazkur ismlarning har ikkalasi ham sof arabcha boʻlib, “muborak”, “baraka” soʻzidan yasalgandir. Bu ism arab tilida faqat erkaklarga qoʻyiladi. Shuning uchun bu soʻz erkaklar ismi sanaladi va oʻzbek tiliga “barakali” kabi maʼnoni anglatadi. Lekin hozirgi kunda ayollarga ham shunday ism qoʻyilmoqda. Abobakr soʻziga keladigan boʻlsak, bu soʻz ham arabcha boʻlib, arab tilida “Abubakr” deb talaffuz qilinadi. Mazkur soʻz asli arab tilida moslashmagan aniqlovchili soʻz birikmasi hisoblanadi va ikki leksik maʼnoni ifodalovchi soʻzga boʻlinadi. Birinchisi “abu” boʻlib, ikkinchisi “bakr”dir. “Abu” soʻzi “ota” maʼnosini, “bakr” soʻzi esa leksik maʼnoda “boʻtaloq” (tuyaning bolasi)ni ifodalaydi. Bu soʻz ismda semantik maʼnoda qoʻllanilgan. Mazkur soʻzning semantik maʼnosi ayibsiz, gunohsiz, rostgoʻy, bokira, kabi oʻzbekcha soʻzlar maʼnosiga mos keladi. Ikkala soʻz qoʻshilib, “Abubakr” soʻz birikmasi shaklida “bokiraning otasi”, rostgoʻyning otasi”, “gunohsizning otasi” kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Shu bilan birgalikda asarda yana arabcha quyidagicha kishi ismlari uchraydi: “Yana Mir Gʻiyos tagʻoyi edi. Ali doʻstning inisi edi” (B.N.:21). “Xuroson va Samarqand Sultoni Abusaid mirzoning taxti tasarrufigʻa kirganda bu ikki poytaxtning ishga yarar yigitlarni xossa tobin qilib, Xuroson guhra tobini va samarqand guhra tobini der ekandur” (B.N.:27). “Hasan Yaqub va Qosim qavchin va yana baʼzi beklarkim Margʻinon va ul taraflarda ilgʻor quyub edilar (B.N.28) Asardan keltirilgan gaplarda ”Mir Gʻiyos, Abusaid, Hasan Yaqub va Qosim kabi arabcha kishi ismlari keltirilgan. Ushbu jumalardagi “Mir Gʻiyos” kishi ismi ham ikkita soʻzning soʻz birikma shaklida bir shaxsning ismini ifodalagan. Mazkur ismdagi “mir” soʻzi “amir” soʻzining qisqargan shakli “mir”dir. Mir soʻzi oʻzbek tilidagi “hukmron, yoʻlboshchi, buyuruvchi, soʻzlari maʼnosiga mos keladi. Gʻiyos soʻzi esa yordam, koʻmak, suyanch, yordamchi, koʻmakchi, suyanchiq, soʻzlari

ifodalagan ma'noda tarjima qilinadi. Har ikkala mustaqil ma'noni ifodalovchi so'z birikib "buyruq beruvchining yoki boshqaruvchining yordamchisi" kabi qaratqich aniqlovchili so'z birikmasi ma'nosini anglatadi.

Keyin zikr etilgan ism "Abusaid" bo'lib, "Abubakr" so'zi kabi ikki ma'noli komponentga ajraydi. Bular "abu" va "said" dir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek "abu" so'zi ota so'zi orqali tarjima qilinadi. "Said" so'zi esa "baxtli, saodatli, omadli, o'suvchi, yuksaluvchi" kabi sifat so'z turkumlari ifodalaydigan leksik ma'noga mos keladi. Ikkala komponent birikib arabcha moslashmagan aniqlovchili so'z birikmasini hosil qilib shaxs nomi (ismi)ni ifodalaydi va o'zbek tilida "baxtlining, o'suvchining yoki omadlining otasi kabi qaratqich aniqlovchili sifat+ot shaklidagi so'z birikmasi ifodalaydigan ma'noni anglatadi.

Navbatdagi gapda ikkita kishi ismi keltirilib o'tilgan. Birinchisi Hasan Yaqub bo'lib, ikkinchisi Qosimdir. Hasan Yaqub ikki mustaqil ma'noli so'z, ya'ni ikkita ism so'z birikma shaklida birikib, bir ismni ifodalab kelmoqda. Aslida Hasan ham Yaqub ham o'zbek va arab tillarida atoqli ot hisoblanadi. Hasan so'zi o'zbek tilida yaxshi, tuzuk chiroyli kabi ma'nolarni ifodalasa, Yaqub, so'zi esa, izidan boruvchi, ergashuvchi kabi manolarni anglatadi. Bu ikkala so'z birikib "Hasan Yaqub" shaklida "yaxshining izidan boruvchi" kabi leksik ma'nolarni ifodalaydi. "Qosim" so'zi esa yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "taqsimlovchi yoki inson qismatini belgilovchi" kabi ma'nolarga ega. Qosim so'zi arab tilidagi qism yoki taqsim kabi so'zlardan fe'l boblarini hosil qiluvchi qoliplar asosida hosil qilingan fe'l shaklidir.

Yana "Boburnoma"da kishi nomlariga to'xtalamiz: "Avval Sahyx Jamol arg'uning inisi Ne'mat, ne'mat arg'un bila, zomin navohisida oqar tuzida g'olib bo'ldi"(B.N:3). To'rtinchi qizi Sultonbegim edi. Sulton Ali mirzo olib edi. Andin so'ng Temur Sulton olib edi. Andin so'ngra Mahdum Sulton olib edi. "Mirzodan so'ng Hamza Sulton olib edi. Hamza Sultondin uch o'g'li bo'lib edi". "Yana bir Sulton Husayn arg'un edi. Necha mahal Qorako'l hukumatiki anda uchun, Sulton Husayn Qoraquliyga mashhur edi". "Yana bir o'g'ul Sulton Vays mirzo

edi”(B.N.:6). Asardan keltirilgan iqtiboslarda arabcha, Ne’mat, Sulton Ali, Mahdi Sulton, Hamza Sulton, Sulton Husayn, Sulton Vays, kabi kishi nomlari keltiriladi. Ne’mat so’zini oladigan bo’lsak, bu so’z o’zbek tiliga “rizquro’z, nasiba, baxt-saodat” kabi so’zlar ma’nosida tarjima qilinadi. Bu so’z ifodalaydigan leksik ma’no grammatik jihatidan ot so’z turkumiga mos keladi. Lekin ism sifatida kishilarga qo’yilganda ko’proq semantik ma’no e’tiborga olinadi. Bu so’zning semantik ma’nosi o’zbek tilida so’z turkum jihatidan nisbiy sifat ifodalaydigan leksik ma’nolarga mos keladi va “nasibali, rizqu ro’zli, baxt-saodatli” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Azaldan O’rta Osiyo xalqlari har biri o’z leksik m’anosiga ega bo’lgan, ikki so’zdan iborat ismlarni o’z farzandlariga qo’yishgan. Bunday ismlar o’rta asrlarda ko’proq urf bo’lgan. Bundan tashqari yaxshi niyat bilan farzandim “shoh” bo’lsin, deb asosiy kishi ismini ifodalovchi so’z oldidan yoki ketidan arabcha “sulton” so’zini qo’shib qo’yishgan. Shunday ismlardan iqtibosda bir nechta uchraydi:

Birinchi “Sulton Ali” bo’lib, “Sulton” so’zi o’zbek tiliga shoh, podshoh kabi so’zlar oraqali tarjima qilinadi. “Ali” so’zi esa yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, o’zbek tilida “ulug’, buyuk, oliy darajadagi shaxs” ma’nolarini anglatadi.

Har ikkala so’z birikib ”Sulton Ali” shaklida so’z birikmasi holatida “oliy darajadagi podshoh” kabi ma’nolarini ifodalaydi. Shu gapda yana Mahdi Sulton kishi ismi uchraydi. Bu ismda “sulton” so’zi “mahdi” so’zidan keyin kelgan. Oldingi ismda “sulton” avval “ali” esa keyin kelgan edi. “Mahdi” so’zi “to’g’ri yo’l, haq yo’l, Alloh yo’li” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mahdi Sulton to’liqligicha “to’g’ri yo’ldan, xaq yo’ldan, Alloh yo’lidan boruvchi podshoh” kabi ma’nolarda qo’llaniladi.

Keyingi iqtibosda qayd etilgan ism. ”Hamza Sulton”dir. “Sulton” so’zi ma’nosi bizga ma’lum, “hamza” so’zi esa arabcha bo’lib, “o’tkir, achchiq, kuydiruvchi, yondiruvchi, chiroq” kabi leksik ma’noni ifodalab, grammatik jihatdan yoki sifat bo’lib kelishi mumkin. “Hamza Sulton” ismi to’liqligicha “o’tkir yoki (yo’lni) yorituvchi podshoh kabi so’z birikmasi ma’nosiga mos tushunchani ifodalaydi.

Navbatdagi ismlar Sulton Husayn va Sulton Vaysdir. “Sulton Husayn” soʻz birikmasidagi “Husayn” soʻzi arabcha “hasan” soʻzining kichraytirish maʼnosini ifodalovchi bir koʻrinish shakli boʻlib yaxshi (yaxshicha), mehribon (mehriboncha), sahiy(sahiycha); chiroyli (chiroylicha), goʻzal (goʻzalcha) kabi leksik maʼnolarni ifodalaydi va “Sulton Husayn” soʻz birikmasi shaklida “yaxshi, mehribon, chiroyli podshoh” kabi leksik tushunchani anglatadi. Demak, mazkur soʻz birikmasi sifat+ot shaklidagi soʻz birikmasi hisoblanadi. Endi, “Sulton Vays” soʻzi koʻpchilikning vakili, ishonchli, kuch-qudratli” kabi leksik maʼnoni ifodalaydi. Bu soʻz ham gaplarda soʻz turkum jihatidan yoki yasama sifat vazifasida kelishi mumkin. Mazkur ism “Sulton Vays” shaklida “ishonchi yoki kuch-qudratli podshoh” kabi sifatlovchi aniqlovchili soʻz birikmasi ifodalaydigan leksik maʼnoni anglatib kelishi mumkin.

Asarda “sulton” leksikasi vositasida yasalgan ismlarda yana Rajab Sulton. Muhib Sulton kabilar uchraydi. “Rajab Sulton” ismidagi “rajab” soʻzi maʼnosini tahlil etadigan boʻlsak, xijriy yil hisobining yettinchi oyining nomi hisoblanadi. Asosan shu oyda tugʻulgan bola yoki qizning ismi rajab yoki rajabiy deb qoʻyilgan. Oʻz-oʻzidan bizga maʼlum boʻladiki, “Rajab sulton” soʻz birikmasi maʼno jihatidan “Rajab oyida tugʻilgan podshoh” kabi leksik tushunchaga mos keladi. “Muhib Sulton” ismidagi “muhib” soʻzi oʻzbek tiliga “doʻst, yoʻldosh, mehribon, suyukli” kabi soʻz turkum jihatidan ot va sifatlar ifodalab keladigan leksik maʼnoni anglatadi va “Muhib Sulton” soʻz birikmasi shaklida “mehribon podshoh, doʻst podshoh” kabi “Sahyx Zunnun” kabi ism ham asarda uchraydi. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, “Sahyx” soʻzi boshliq, homiy” kabi maʼnoda qoʻllaniladi. “Zunnun” soʻzi esa “ulkan baliq egasi” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Chunki aqidaga koʻra, Yunus paygʻambar uch kun katta baliq (kit)ning ichida yashaydi. Shu sababli, unga “zunnun” laqabi berilgan, keyinchalik “zunnun” soʻzi kishilar ismiga aylangan. Shunday ekan, “Sahyx Zunnun” ismini maʼno jihatdan “baliq egasining boshligʻi tarzida oʻzbek tiliga tarjima qilish mumkin.

Har biri alohida-alohida mustaqil maʼnoni ifodalovchi ikki soʻzdan tashkil topgan ismlardan tashqari, bir mustaqil maʼnoga ega boʻlgan bir arabcha soʻzdan

iborat bo'lgan ismlar ham asar tilida ko'plab uchraydi: "Xo'janddin o'tub aro yo'lg'a yetganda Xalifani Shayx Zunnung'a risolat tariqi bila yiborildi. Ul bexush mardak javobi shofiy bermay, Xalifani tutturub o'lumg'a buyurdi"(B.N.:32). "Muzaffar Mirzo va Muhammad Burunduq barlosni Hatlon ustiga yibordi. "Hofizbek va Shoxirbek munosabati jihatidin Sulton Ali mirzodin qochib, Mirzoxon qoshig'a borib edilar (B.N.:69). "Abdulmannondin kichikroq Mo'min otliq bir yaramas va parishon o'g'li men Samarqandda ekanda mening qoshimg'a kelib edi.

Iqtibosda sof arabcha "Hofiz va Toxir" kabi ismlar qayd etilgan. "Hofiz" so'zi "saqlovchi, asrovchi" kabi ma'nolarni ifodalaydi. "Toxir" so'zi esa "toza, pokiza, nuqsonsiz, begunoh, dog'siz" kabi ma'nolarni ifodalab, so'z turkum jihatidan sifatdir. Ushbu gaplarda "xalifa" ismi kishi nomi tilga olinadi. "Xalifa" so'zi ham arabcha bo'lib, "o'rinbosar, yordamchi va vakil" ma'nolarini ham ifodalaydi. Navbatdagi gapda "Muzaffar" so'zi kishi ismi sifatida qayd etilgan. Bunday ismlar hozirgi kunda ham tez-tez uchraydi. Hozir ham kishi nomi sifatida qo'yib kelinmoqda. Bu so'z arabcha "zafara" fe'lidan ot yasovchi qolipga solish orqali "Muzaffar" so'zi yasalgan. "Muzaffar" so'zi o'zbek tiliga "g'olib, yenguvchi, zafarga erishuvchi, g'alabaga erishuvchi" kabi ma'noda tarjima qilinadi.

Ushbu asardan namuna sifatida keltirilgan gaplarda "Mo'min" ham uchraydi. Bu ism ham arabcha bo'lib dinga ishonuvchi, xudojo'y" kabi leksik ma'nolarga ega. Mo'min nomi xudoning sifatlaridan biri hisoblanib, bandalarni asrovchi, saqlovchi kabi ma'nolarni ham anglatadi. Shuning uchun ko'pincha "Mo'min" deb emas, Abdumo'min deb ham ism qo'yiladi.

Mazkur iqtibos sifatida keltirilgan jummalarda kishi ismi sifatida "Xotam" va "ma'ruf" so'zlari ham uchraydi. "Xotam" so'zi ism bo'lib, insonlarga nom sifatida qo'yilishiga sabab, arablarda Xotam ismli sahiy bir shoh to'g'risida juda ko'plab rivoyatlar mavjud. Jumladan kim sahiylik qilsa, yoki asar qahramonlari sahiy, xalqparvar bo'lsa, rivoyatlarning qahramoni Xotamga nisbat beriladi. Shu

sabablimi, “Xotam” soʻzining maʼnosi “sahiy, qoʻli ochiq, oliy himmat” kabi maʼnolarni ham ifodalaydi.

Bundan tashqari asarda Abbos, Usmon, Said Umar, Nizomul mulk, Nasr kabi arabcha tarixiy shaxslarning nomlari qayd etib oʻtilgan. Mazkur ismlardan “abbos” soʻzi “qovogʻi soliq, badjahl, beshavqat, dovyurak, jangovar” kabi maʼnolarga ega. Keyingi ism “Usmon” esa, tarixda yashab oʻtgan chahoriyorlardan birining ismi ham hisoblanadi. Shuning uchun bunday ism musulmon diniga eʼtiqod qiladigan xalqlarda kishi nomi sifatida koʻp uchraydi. Maʼno jihatidan oʻzbek tiliga “ogʻir, bosiq, mard, jasur” soʻzlari orqali tarjima qilinadi. “Said Umar” ismi ikki mustaqil soʻzning soʻz birikmasi shaklida hosil qilingan kishi nomidir. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, “Said” soʻzi “baxtli, saodatli” kabi maʼnolarni ifodallasada, “Umar” esa “barhayot, boqiy, yashaydigan, abadiy” kabi maʼnolarni anglatadi.

Mazkur shakl arabcha moslashgan aniqlovchili soʻz birikmasi hisoblanadi va oʻzbek tilidagi qaratqich aniqlovchili soʻz birikmasiga mos keladi. “Nizom” soʻzi oʻzbek tiliga “tartib, intizom, tuzum kabi tarjima qilinadi. Mulk soʻzi esa “davlat”, podshohlik, boylik kabi maʼnolarni anglatadi. Bu ism “Nizomulmulk” shaklida “davlat tuzumi yoki podshohlikning tartib qoidasi” singari oʻzbek tiliga tarjima qilinadi. Navbatdagi ism “Nasr”dir. Bu ism oʻzbek tilida “Nasr” deb atalishi bilan birga, uning fonetik oʻzgarishga yuz tutgan shakli, “nosir”ham uchraydi.

Yahudiycha kishi nomlari

Boburning “Boburnoma” asarida ham yahudiycha ismli tarixiy shaxslar nomlari keltiriladi: “Yusuf Xojakim musiqada mashhurdir. Andijoniydur “necha navbat qoyin otasi Yunushonnikim, Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoyxon naslidandur.(B.N.:6)Yana bir Ayub edi. Abusaid Mirzo qoshida chuhrasi garchasida ximat qilur edi (B.N.:29). “Bu fursatda Ibrohim sorikim, mingligʻ elidin edi, otamning oldida kichikdin xizmatlar qilib, beklik martabasigʻa yetib edi” (B.N.:30) “Fil hol izhor qilmadi. Xoja Yahyoning uyiga bordi” (B.N.:36). Xisravshoh moʻgʻul ulusining bizga qoʻshulgʻonini eshitib, xeyli bepoy boʻlub,

chorasini topmay, kuyovi Yaqub Ayubni elchilikka yuborib, qulluq va davlatxohliq izhor qilib, istidg‘o qolibturkim, agar ahd qilmasalar, qulluqqa kelgumdur” (B.N.:112) Mazkur ismlardan ”Yusuf” Iosifning arabcha shaklidir. Manosi. O‘sgan, ko‘paygan. Yusuf nomi Sharqli go‘zallik, xushro‘ylik timsolidir. Keyingi ism Yunusdir. Bu ism kaptar, kabutar kabi leksik ma’noga ega Yunus Payg‘ambarning nomi hisoblanadi. Navbatdagi yahudiycha ism “Ayub” dir. Bu so‘z ham yahudiycha bo‘lib, qilgan xato va gunohlarig‘a pushaymon chekuvchi, afsuslanuvchi, sabr-bardoshli, tavgaga yuzlanuvchi, sabrli, chidamli, hurmatli yoki tavba qiluvchi deb izohlanadi.

Keyingi ism “Ibrohim” bo‘lib, bu “Bibliya”dagi Abram ismining arabcha shaklidir. Mazkur so‘z “xalqlar otasi” ma’nosini anglatadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, rivoyatlarga ko‘ra, Ibrohimning Ishoq va Ismoil degan o‘g‘illari bo‘lgan. Ishoqdan yahudiy xalqi, Ismoildan esa arablar tarqalgan. Yana bir ism “Yaxyo”dir. Bu ism ham yahudiycha bo‘lib o‘sha sahiy, muruvvatli, ochiqqul, barhayot yoki xushxulq, insonga do‘st kabi ma’nolarni ifodalaydi. Navbatdagi yahudiycha ism, Ismoildir. Mazkur ism ‘xudo eshitdi” yoki “Allohdan so‘rab olingan, Alloh tuhfa qilgan, ma’nolarni ifodalaydi. Tavrotdagi rivoyatga ko‘ra, Ibrohim payg‘ambarning xotini Hojar Allohdan farzand so‘rab iltijo qilgan. Shu tufayli tug‘ilgan bolaga Ishmasl (Ismoil) deb ism berishgan.²⁵

Biz BMIning mazkur bobida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan onomastik (kishi) nomlarni, ya’ni tarixiy shaxslarning ismlarini ajratib oldik. So‘ngra ularni alohida Alloh sifatleri, diniy tushunchalar, arabcha va yahudiycha kabi turlarga bo‘lib ularni tilshunoslik nuqtayi nazardan leksik-semantik va gramantik tahlilini amalga oshirdik.

Jumladan, asarda arabcha va diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan ismlar 235 tani tashkil qilishini aniqladik va ularning tuzilish va yasaliş usullarini, ya’ni bir yoki bir nechta so‘zning qo‘shilishi yoki so‘z birikma holatida kelishi va hozirgi o‘zbek adabiy tilida ifodalaydigan leksik ma’nolarini aniqladik va bular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqardik.

¹ Bekturodov N. Chiroyli ismlar to‘plami. T.: 2010. 101-102-betlar.

Shu bilan birgalikda arabcha izofa ko'rsatkichi vositasida, ya'ni arabcha moslashgan aniqlovchili yoki moslashmagan aniqlovchili so'z birikmasi shaklida yasalgan kishi ismlari leksik va grammatik jihatidan tahlil qilindi.

Bundan tashqari, asar tilida keltirilgan qadimgi yahudiycha ismlar ham alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib ularning asl ma'nolari va hozirgi kunda ifodalaydigan semantik ma'nolari aniqlandi.

2.3. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining akademik litseylarda ikkinchi bosqich talabalariga o‘tilishi

Bobur jahongashta olim bo‘lgan. U Farg‘ona vodiysini, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Hisor va Xirotgacha bo‘lgan shahar qishloqlarni, voqa va tog‘larni kezib, taqdir taqazosi bilan Afg‘oniston, Eron, Pokiston va Hindiston o‘lkalarida bo‘lib, qimmatli ilmiy ma’lumotlar yozib qoldirgan. Bobur Hindistonni zabt etgandan so‘ng uni Movarounnahrta taqqoslaydi: “g‘aroyib mamlakate voqe bo‘lubtur, bizning viloyatlarga boqa o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavozi va viloyati va hayvonot va nabodoti, eli va tili va yomg‘uri va eli boricha o‘zgacha voqe bo‘lubtur”. O‘z vatanini ta’riflaganda uning diqqat e’tiboridan yer osti xazinalari ham chetda qolmadi.

U Farg‘ona vodiysi chor atrofidagi tog‘larda, ayniqsa, Yettikentda feruza va temir konlari bor deb yozgan. Hozir bizga ma’lumki, vodiyni shimoliy G‘arbga joylashgan temir konlari mavjud. Bularga Chokadambuloq Chimyon konlarini misol qilishimiz mumkin. Masalan, u o‘simlik va hayvonlar haqida hikoya qilib xurmoni shunday ta’riflaydi: “Yana xurmodir. Agarchi xurmo Hindiston maxsus emas. Chun ul viloyatlarda yo‘q edi, mazkur bo‘ldi... shoxlari daraxt kallasida bir yerda –o‘q bo‘lur, tanasi nohamvor va badrangdur. Mevasi uzumning xo‘shasidek bo‘lur, xo‘shasidin xiyli ulug‘roq bo‘lur...” Shu tariqa boshqa so‘zlar ham namunadagidek izohlanadi.

Pedagogik texnologiyalar tadqiqotchilarning fikricha-bu axborot texnologiyasi bilan bog‘liq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan TCO, kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyani eng asosiy negizi –bu o‘qituvchi va o‘quvchi-talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikka erishish uchun tanlangan texnologiyalarga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar. Ijodiy ishlasa,

izlansalar, tahlil eta olsa , o‘qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa bizning fikrimizcha, ana shu o‘qitish jarayonning asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ushbu fikrimizni Bobur lirikasida ko‘rishimiz mumkin:

(Zahiriddin Muhammad Boburning “G‘urbatlar ul oy...”g‘azali tahlili)

1. **Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarda nazmiy go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish tuyg‘ularini shakllantirish.
2. **Ta’limiy maqsad:**
 - a) G‘azalni sharhlash, mazmunning san’atkorlik qirralarini ochish;
 - b) O‘quvchilarni tahlilga o‘rgatish, ularning ijodiy tafakkurini o‘stirish, ijodiy imkoniyatlarini nomoyon qila bilishga o‘rgatish.

Darsning jihozlanishi:

Bobur portreti, asarlaridan namunalar, jadvallar, rasmlar, audio va video tasmlar.

Texnik vositalar: magnitafon, televizor.

Dars usullari:

1. “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Aniqlash”, “Tadqiqot”, “Ijod” amalga oshiriladigan tahliliy bosqichlar:

Matnga ilk yondashuv

mazmunini idrok qilish

Shaklni idrok qilish

she’rini tushuntirish


O‘qituvchi.

“Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan”. Darhaqiqat, shoirimiz Abdulla Oripov aytganidek, dunyo-sir, hayot-sir. Qo‘liga qalam ushlagan zot borki, ana shu “anglab bo‘lmas sir”ning tagiga yetishga urinadi. Lekin olam sir-sinoatlarini Bobur Mirzochalik izlagan shoir kam bo‘lsa kerak. Chunki, she’riyatning o‘zi ham sir. Mumotz so‘z san’atkorlari satrlarida jo bo‘lgan jilolarni aniqlash, bilib olish uchun nimalarga e’tibor berish lozim? Shoirni qalam tutishga

undagan dard nimadan iborat? Bugungi darsimizda ana shu savollarga javob izlaymiz, Bobur gʻazallarining sehrli olamiga sayohat qilamiz.

“Aqliy hujum”, “Gʻazal nima?”

Oʻquvchilar gʻazal haqidagi fikrlarni shu paytgacha oʻrgangan bilimlari asosida bildirib boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar sinf taxtasiga yozib boriladi. Notoʻgʻri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi, chiroyli, asosli fikrlar ragʻbatlantiriladi va umumiyashtiriladi. Oʻqituvchi rahbarligida “Klaster” usulidan foydalanib, gʻazalga taʼrif beriladi:



O'quvchilar mustaqil fikr bildirib, bu usulni davom ettirishlari mumkin.

O'qituvchi: Har g'azalning go'zalligi, maromi, ta'sirchanligi, quvvati bor. Zahiriddin Muhammad Boburning "G'urbatda ul oy" g'azalining badiiy mahorati, mahorat mahsuli ekanligi har qanday kitobxonni maftun etadi.

G'azal audio tasma orqali eshittiriladi.

"Tadqiqot"

O'qituvchi topshirig'i bilan guruhlarda kichik ilmiy tadqiqot o'tkazadilar va natijalarni himoya qiladilar.

Savollar:

1. G'azalning insonga ta'sirini qanday tushunasiz?
2. G'azalning ma'no va ifoda boyligiga asosiy sabab nima?
3. G'azalning yaratilish davri, qofiya tizimi va uning asosini nima belgilashini aniqang.

1-guruh: Shoir so'zlarini misralarga, misralarni baytlarni baytlarga ulaydi. G'azaldagi har bir so'z qalam kuchi bilan shuurimizda ta'sir uyg'otadi, ruhimizda ajib hislar paydo etadi, tafakkurimizni g'oyalar sari yetaklaydi, boyitadi.

2-guruh: g'azalda 54 ta so'z ishlatilgan. Ayrimlari bir necha bor qo'llanganini qo'shib hisoblasak, ular soni 63 taga yetadi. Lekin g'azalda ifodalangan ma'nolarni boshqa birov shuncha oz so'z bilan Boburchalik bayon eta olmasa kerak. Shoir dahosi, mahorati g'azalni shu darajaga ko'targan.

1-guruh: Bu g'azal 5 bayt, 10 misradan iborat. g'azal a-a-b, v-a, g-a, d-a tarizda qofiyalangan, "qilibtur" radif bo'lib kelgan.

2-guruh: She'rning o'ynoqi vazni-hajazi musamani ahrabi makfufi mahzub (mafuvlu mufoyilu mafoyilu fauvlun mafuvlu mafoyilu mafoyilu fauvlun –VV—VV—VV-----VV—VV—VV---) shakliga ega.

Tahlil

G'azal guruhlar o'rtasida baytma-bayt tahlil qilinadi.

1-guruh.

G'urbatda ul oy hajti meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat menga ta'sir qilibtur.

Yor (ul oydan ayrilib (“hajr”) yashamoq azobi, (“g‘urbat”) meni qaritdi (“pir qilibtur”), hijron bilan g‘urbat o‘z ta’sirini ko‘rsatdi deb boshlaydi. Lekin hech qachon unga yetish orzusidan voz kechmaydi. Aksincha, hamisha shu umid bilan yashaydi.

2-guruh.

Maqdur borincha qilurim sayi visoling,

To tengrina bilmonki, ne taqdir qilibdur.

Tangri peshonamga nima yozganini bilmayman,

Lekin qazoyi qadar yetguncha-o‘lguncha uning bilan kurashish (visol harakatini qilaman, deydi.

Tahlildan so‘ng “Yulduzli tunlar” videofilmida ijro etilgan qo‘shiq video tasmadan qo‘yib beriladi.

O‘qituvchi: aziz o‘quvchilar! Bobur ijodi ummon bo‘lsa, darsimizda bir qatrasining jilvasidan bahramand bo‘lish bahtiga muyassar bo‘ldik.

Ijod

Bobur ijodidan ilhom olib, quyidagi so‘zlardan bayt hosil qiling. Siz kashf etgan nazm chechagi bizning Bobur mirzoga bo‘lgan chuqur ehtiromimiz va bergan yuksak bahomiz bo‘ladi: har, barchasi, Bobur, ibrat, so‘zi, bir, hikmat, aytqon.

O‘quvchilar so‘zlarni joylashtirib qofiyalaydilar. Quyidagi bayt yuzaga keladi: Boburning har bir so‘zi hikmat durur, aytqonlarin barchasi ibratdurur.

O‘qituvchi: darhaqiqat quyosh kabi so‘nmas, oltin kabi qoraymas, mo‘jizakor, nafis, hayratomuz go‘zal, rang-barang va sehrli badiiyat Boburning sohir satrlari naqadar zavqli, ilhombaxsh, shavqli va ibratlidir.

9-sinfda Zahiriddin Muhammad Boburning lirikasini o‘rganishda quyidagicha bahru-bayt shaklidan foydalanish mumkin.

1-o‘quvchi.

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngilni mehnatda kishi.

Ko‘nglim bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,

G'urbatda sevinmas emish, albatta kishi.

2-o'quvchi.


Ishqingda ko'nfil harobdur, men ne qilay?

(Hajringda ko'zim turobdur men ne qilay?

Jismim aro pechu tobdur, men ne qilay?

Jonimda ko'b iztirobdur men ne qilay?

Yuqori siinflarda, ayniqsa, xilma-xil asar qahramonlariga xos portret qiyofalarini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish vositasida u qaysi asar qahramoni ekanini topish o'yinini olib borish mumkin. Har bir adibning ijodi uning hayot yo'lini o'rganishdan boshlanadi. Metodik adabiyotlarda muallif tarjimai holi ikki sababga binoan o'rganilishi: birinchidan, tarjimai hol o'rganiladigan badiiy asarni tushunishga kalit bo'lish, ikkinchidan, millatning eng yetuk farzandlaridan hisoblanmish adiblar hayotidagi namuna bo'lgulik jihatlar orqali o'quvchilar ma'naviyatida muayyan sifatlarni shakllantirilishi mumkinligi qayd etilgan.



Xulosa

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining XV asrda yashab ijod etgan buyuk namoyondalaridan biridir. Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asari XVI asr o'zbek nasrining eng qimmatli namunasidir.

Bu asar mazmun e'tibori bilan qomusiydir unda Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, O'rta Sharq va Hindiston o'lkalarining tarixi, etnografiyasi, adabiyoti va etnik qatlamlari tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosi tili adabiyotiga oid qimmatli va ishonarli ma'lumotlar jamlangan. Bu shoh asarda adib Boburning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli til uslubi, uning o'ziga xos betakror go'zalligi o'z aksini topgan. Asarning bosh qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburning o'zi. Uning hatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, maqsad va intilishlari, ularni amalga oshirishdagi qat'iyat va mahorati asar qahramonini ideal qahramon darajasiga ko'taradi.

Boburning eng muhim tomoni shuki, u o'z asari bo'lmish "Boburnoma"ni turkiy (eski o'zbek tilida) yaratilganligi adibning o'z ona tili rivojiga qanchalik e'tibor qaratganligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, Boburning "Boburnoma" asari o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda ham noyob manbalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur BMI imiz yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Biz ushbu BMI da Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o'zbek adabiyotini rivojlanishida tutgan o'rnini aniqladik va uning bizga qoldirgan adabiy merosini birma-bir sanab chiqib, barcha asarlarining qaysi sohaga ba'g'ishlanganligini hamda ularning o'zbek va jahon adabiyoti rivojida qay darajada ilmiy-adabiy qimmatga ega ekanligini o'rgandik va ilmiy-nazariy xulosalar chiqardik.

2. Adibning "Boburnoma" asari qomusiy asar ekanligi, uning nomlanishi dastlab qanday bo'lganligi va asarning yaratilish tarixi, kompozitsiyasi, yozish uslubi hamda tarixiy manba sifatida boshqa asarlardan afzalliklari manbalar asosida o'rganildi. Shu bilan birgalikda. O'zbek onomastikasi va uning turlari xususida fikr yuritib, bu borada tilshunos olimlarning qilgan ishlari va erishgan

yutuqlari birma-bir sanab o'tildi hamda bu soha bo'yicha qilinadigan ishlar, shuningdek, onomastika sohasining muammolari o'rganildi va mazkur soha yuzasidan badiiy asarlar onomastikasini o'rganish borasida qilinadigan ishlar bo'yicha ilmiy-metodik prinsiplar ishlab chiqildi. 3. Boburning "Boburnoma" asarida qayd etilgan onomastik nomlarni, ya'ni tarixiy shaxslarning nomlarini Alloh sifatlari, diniy tushunchalar hamda arabcha-yahudiycha kabi turlarga bo'lib ilmiy tasnif va tavsifi amalga oshirildi. 4. Asardagi Alloh sifatlari bilan bog'liq bo'lgan ismlarning tilshunoslik nuqtayi nazardan leksik-semantik va grammatik tahlili amalga oshirildi va mazkur nomlarning ma'noli komponentlari, tuzilishi so'z turkum jihatidan o'rganildi. 5. Boburning "Boburnoma" asaridagi forsha izofa ko'rsatkichi vositasida hosil qilingan diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar moslashgan aniqlovchili yoki moslashmagan aniqlovchili so'z birikmasi kabi guruhlariga bo'lib, alohida-alohida leksik va grammatik tahlili amalga oshirildi.

6. Asardagi sof arabcha va qadimgi yahudiycha kishi nomlari ajratilib, ularning o'zbek tilida ifodalaydigan leksik va semantik ma'nolari aniqlandi va yahudiycha ismlarning talaffuz jihatidan o'zgarishga yuz tutgan jihatlari ko'rsatilib bu xususida tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy nazariy xulosalar chiqarildi. 7. Shu bilan birgalikda Boburning "Boburnoma" asari tilida qayd etilgan Alloh sifatlari, diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan, hamda arabcha va qadimgi yahudiycha bo'lgan ismlar ajratilib ularning soni aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent, 2008 yil.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida". Toshkent 2011yil.
3. Abdurahmonov G'., Shukurova Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4-jild, -T.
5. Abdug'ofurov A. Bobur she'riyati. Bobur. Devon. –T., 1994.
6. Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., O'zbekiston, 2011.
7. Mallayev N.M. Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi. – T., 1965.
8. Nazarova X. Bobur va o'zbek adabiy tili. – T., 1983.
9. Nurmonov A. Zahiriddin Muhammad Bobur-tilishunos olim //Bobur va o'zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. Andijon, 1993.
10. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., 1966.
11. Tursunov I., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., O'zbekiston, 1992.
12. Halilov L. Fors tili. –T., O'qituvchi, 1992.
13. Abdusaidov M. Fors tili. – T.,
14. Rustamov A. "Alisher Navoiy asarlarining fonetik va morfologik xususiyatlari" – T., 1966.
15. Shamsiyev P. Boburnoma. – T., Yulduzcha, 1989.
16. Boburnoma. O'z FA nashriyoti 1960-yil.
17. Muhtorov N. Rajabov "O'zbek tili tarixini yanada chuqur o'rganaylik"
18. Xolmatov Z. "Boburnoma" leksikasi. T.: Fan. 2007.
19. Mahmudov K. "Bobur-o'zbek tilining bilimdoni". Adabiy meros. 1988-yil.
20. Bekmurodov N. Chiroyli ismlar to'plami. T.: 2010.

MUNDARIJA

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI.....	1
KIRISH....	2-8
I BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ADABIY MEROSI	9
1.1 Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek xalqining buyuk zabardast allomasi.....	9-16
1.2. “Boburnoma” buyuk qomusiy asar	17-23
II “BOBURNOMA” DA ONOMASTIK NOMLAR.....	24
2.1. Onamstika haqida ma’lumot	24-31
2.2. “Boburnoma”da qo‘llanilgan kishi nomlarini ma’no jihatidan tasniflash:.....	32-56
2.3. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining akademik litseylarda ikkinchi bosqich talabalariga o‘tilishi.....	57-62
XULOSA	63-64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	65

